

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM FAKULTETI
"TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI"
KAFEDRASI

“Baxorgi gullardan tashkil topgan natyurmort (moybo’yoq)”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Tasviriy san’at muxandislik grafikasi

ta’lim yo’nalishi 3-1TS-15 guruhi bitiruvchi talabasi

O’rinova Saida Odilovna _____

Ilmiy raxbar: Tasviriy san’at va muhandislik

grafikasi kafedrasi katta o’qituvchisi

Ramazonov Shuhrat Raximovich_____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

_____ sonli bayonnomasi "_____" 2019 yil

Mavzu: Baxorgi gullardan tashkil topgan natyurmort (moybo'yoq)

Reja:

Kirish.....2-7 betlar

I-BOB

- 1.1. Rangtasvirda natyurmort va uni tasvirlash usullari.....8-12 betlar
1.2. Natyurmort haqida umumiy ma'lumot.....14-18 betlar
1.3. Natyurmort janrida ijod etgan rassomlar.....19-27 betlar
1.4. Natyurmort ishlashda moy bo'yoqlardan foydalanish usullari.....28-31 betlar

II-BOB

- 2.1. Natyurmortni gullar asosida bajarish jarayonida kompozistiyava rang munosabatlari.....32-40 betlar
2.2. Natyurmort bajarishda amaliy tavsiyalar.....41-43 betlar
2.3. Ranglarning ta'siri va uni idrok etish.....44-52 betlar
2.4. Mavzusiga oid zamonaviy dars ishlanmasi.....53-64 betlar
XULOSA.....65-70 betlar
ILOVALAR.....71-85 betlar
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....86-87 betlar

Introduction

The Still life - an independent genre graphic arts.

Natyurmort (fr. nature morte - "destroying nature") - a scene inanimate subject in graphic arts.

The Still life as independent genre painting came up for Russia at the beginning initially XVIII age. The Belief about him was originally connected with scene grant land and epidemic deatthes, varied world of the things, surrounding person. Up to the end 19 ages still life, unlike portrait and history picture, was considered as "undermost" genre. He existed mainly as scholastic production and was allowed only in limited understanding as painting colour and fruit

The Still life - one of the independent genres painting. Svoeobrazie genre is concluded in his(its) greater scenepossibility. Through material essence concrete subject true artist can in figurative form to reflect the essential sides to lifes, tastes and customs, social position of the people, important history events, but sometimes and safe epoch.

Know how truthful изобразить from nature form and paints subject - signifies to send by means of designs, prospects, color relations to proportions, volume, materially, spatial position subject and their nature in holistic picturesque still life. These quality realscenes subject are directed on discovery their aesthetic characteristic and beauties.

Yore still life is considered by best school real painting, where artist learns the laws to color harmony and plastic of the forms, learns the skill a holdings by technical methods and creative attitude to nature.

From history of the still life

In histories of the still life as independent genre artists as from 17 ages strove;strived not only to form the still life beautifully, select to him interesting subjects and drapeses, but also find such illumination, under which most packed opened idea.

In all timeses painter spared the light big attention, considering luminosity subject as figurative begin in production, capable to cause beside spectator determined mood. Understand and feel emotional power of the light in still life will help the study a skill dutch artist-realist XVI - XVII vv.; Peter place;put;lay, Villema Geda, Fransa Snaydera, in creative activity which art of the still life has got the top development.

Being brilliant artist and painter, "small dutchman" knew how to notice aesthetic value a belongings, but through it to send such joy of the perception to lifes that hitherto cause the delight lovingly written by them dishes, fruits, дичь.

As from mediums 19 ages on development painting, including still life, began to render the influence french impressionism. The Artists started to show more interest to ambience, in which is found still life, to issue of the light, vozduha, plays color and light heel on surfaces subject.

Picturesque possibilities of the still life

The picturesque possibilities of the palette artist vastly enlarged For count of the enrichment light effect. In the course of work on drawing can appear the diversity of colors in interpretation separate subject and their details. It is Necessary to restore the unity of the scene, litter, drawing begins on principle "from integer to quotient", but ends the realization of the principle "from quotient to integer".

The Complete drawing must be not only literate built, but also expressive. For this drawing necessary to answer itself on question: as, emphasizing or softening borders of the form, generalising carefully studied carefully detail and subordinating their big form, truthful to display material essence a subject, decorative nature of the still life?

As a rule, classical still life has clear spatial division on three plans with clear expressed by composition centre. The Foreground is conducted small subject complementing general, but not grabbing attention spectator from the main of the subject, being centre to compositions (the byplay). The Drapeses located on the one third plan still life, play the role of the background.

Kirish

Mavjud ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko`tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, saloqiyatlari avlodni tarbiyalash O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to`g'risidagi farmoni va "Ta`lim to`g'risida" gi qonun va kadrlar tayyorlash bo`yicha milliy dasturning negizini tashkil qiladi. Bu dolzarb vazifalar prezidentimiz va hukumatimizning doimiy e`tiborida bo`lib, boshqa farmon va qarorlarda ham o`z aksini topmoqda. Buxoro xalq ustalari maktabining iste`dodli vakili bo`lgan Usta Shirin me`mor va naqqosh sifatida yarim asrdan ko`proq mehnat qilib, juda ko`p ajoyib asarlar yaratdi. Ustaning ijodiy yo`li sobiq Karmana va Buxoro saroylaridan tortib, O`zbekistonimizning poytaxti bo`lmish Toshkentdagi Muqimiy nomli teatr va Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri kabi yirik jamoat binolarining qurilishi davrini o`z ichiga oluvchi ulug`vor yo`ldir; bu respublika arxitekturasining dastlabki o`ttiz besh yil davomidagi rivojlanishini ham qisman aks etuvchi yo`ldir. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashni milliy dasturi ishlab chiqilishi va uni amalga oshirilishi ta`lim-tarbiya jarayonida g`oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, milliy kadrlar tayyorlash va uni sifat-saviya jihatidan yuksaltirish - bu yuqori malakali o`qituvchi-pedagoglarni tayyorlash bilan birga yosh avlodga ta`lim-tarbiya berishni ham yuqori saviyaga ko`tarilishini asosiy omili bo`lib xizmat qiladi.

Ma`lumki, ta`lim-tarbiya jarayonida boshlang`ich sinflar ta`limi alohida bosqich, alohida etap bo`lib, bu davr bola shaxsini eng kuchli rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki, bu davr bolalarni 5-6 yoshidan 10-11 yoshgacha bo`lgan o`sish davri bo`lib, unda bola shaxsi o`zining yetuklik va o`smirlik davriga ilm, tafakko`r, tasavvur, malaka va ko`nikmalar chiqadi. Chunki, xuddi shu davrda bola shaxsining ko`rish, kuzatish, idrok etish, tasavvur va tafakko`r qilishga o`rganish davrining eng shiddatli bosqichi bo`ladi. Shu boisdan ham boshlang`ich sinf o`qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika o`quv yurtlari va ularning bo`limlarining o`quv rejalarini va dasturlarini bugungi kun jamiyatimiz talabi darajasida bo`lishini ta`minlamog`i

lozim. Ma'lumki, pedagogika kollejlarining "Boshlang'ich sinf va mehnat o'qituvchisi" tayyorlash bo`limlarida o`qitilgan "Tasviriy san`at va uni o`qitish metodikasi" o`quv fani mutaxassislikning asosiy va bosh o`quv fanlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Chunki, bu o`quv fani bo`lajak o`qituvchi-pedagoglarni estetika va san`at asoslari bilan qurollantiradi, tabiatdagi, jamiyatdagi va san`atdagi go`zallikni ko`ra bilishga o`rgatadi. Shuningdek, bu fan ayniqsa, o`qituvchi kasbi uchun g'oyat zarur, har soatda, har daqiqada kerak bo`ladigan - rasm chizish ko`nikmasini beradi. Bu rasm chizishni bilish o`qituvchi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o`qituvchisi uchun shunchalik zarurki, - "Rasmni ko`rgan soqov ham tilga kiradi" - degan iborani eslab o`tish o`rinli edi. Demak, boshlang'ich sinf o`qituvchisini rasm chizishni bilishida boshqa o`quv predmetlarini o`qitishda ham rasmdan yaxshi foydalanish imkoniyati tug'iladi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, Pedagogika kollejlarida o`qitiladigan "Tasviriy san`at va uni o`qitish metodikasi" o`quv fani oldiga: har tomonlama shakllangan boshlang'ich sinf o`qituvchini tayyorlash, unga estetika, san`at va materialistik tushunchalarni berish va rasm chizish ko`nikmalarini singdirish maqsadini qo`ygan holda faoliyat ko`rsatadi. Yuqoridagi ancha murakkab va mas`uliyatli maqsaddan kelib chiqilgan holda ko`rs o`z oldiga:

1. Bo`lajak boshlang'ich sinf o`qituvchilariga tabiat-jamiyatdagi narsa va hodisalarini kuzatish, ko`rish, ularni ilmiy asosda idrok etishga o`rgatish.
2. Talabalarni badiiy didini, estetik tushunchasini, materialistik dunyoqarashini, go`zallik olamini va ijodiy iste`dodini, ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash.
3. Narsa, voqeа, hodisalar tasvirini - rasmini chiza bilish, ularni ijodkorlik asosida bajarish bo`yicha malaka-ko`nikmalar hosil qilish. Sovetlar davrida o`zbek rangtasviri yangi yo`nalishga kirdi va u o`ziga xos yo`nalishda rivojlandi. Uning barcha janrlari: portret, manzara, natyurmort, maishiy, tarixiy janrlar va amaliy san`at yangi mazmun, mohiyat va xarakterda taraqqiy etdi. O`zbek rangtasvirini shakllanishi va rivojlanishida L.Bure, A.Nikolaev, P.Benkov, O'.Tansiqboev, P.Abdullaev,

A.Abdullaev, N.Qoraxon, Ch.Axmarov, M.Nabiev, R.Choriev, R.Axmedov, B.Jalolov, J. marbekov, M.Saidov, Z.Inogamov kabi rassomlar katta xizmat qildilar. Mustaqillik yillarida o`zbek rangtasvirining keksa ijodkorlari R.Choriev, R.Axmedov, M.Nabiev, N.Qo`ziboev, B.Boboev kabilar bilan birga B.Jalolov, J.Umarbekov, I.Turqunnazarov, Yu.Taldikin, V.Burmakin, S.Alibekov, Akmal Nur, L.Ibragimov, T.Ko`ryazov, A.Ikromjonov, V.Oxunov kabi yuzlab yosh rassomlar ijod qilmoqdalar. Ranttasvir asarlar o`zining yaratilish metodi, uslubi, maqsadi va vazifasiga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi.

1. Monumental rangtasvir - arxitektura me`morchiligi bilan bog'langan holda, jamiyat hayotidan olingan voqealarni ifodalab, umumtarbiyaviy vazifani bajaradi. Bunday asarlar asosan umumiylar xarakterda bo`lib, uzoqdan ko`rinishga moslashtiriladi va mo`ljallab ishlanadi. Shu boisdan ular bino devorlariga yoki biron satxga bo`yoqlar asosida ishlanadigan devoriy rasmlar va rangli toshlar, sopol, shisha, oyna kabi materiallar vositasida ishlanadi. Monumental rangtasvir ishlari haykaltaroshlik kompozitsiyalari bilan ham ishlatiladi. Bunda ishlanadigan haykalni ulug'vorligini, go`zalligini oshirishtsa foydalaniladi. Monumntal rangtasvir hozirgi kunda san`at saroylarini, vokzallarni va metro stantsiyalarini bezatishda ishlatilmoqda.

2. Dastgohli rangtasvir - maxsus tayyorlangan ramkaga tortilgan material mato (xolost) yuzasiga bo`yoqlar yordamida ifoda etilgan san`at asridir. Bu asarlar maxsus stanokda yoki mol'bert deb atalgan qurilmada ishlanadi, shu boisdan bunday asarlarni dastgohli asarlar, ya`ni dastgohli rangtasvir deyiladi.

3. Dekorativ rangtasvir - asosan bezatish vositasida qo`llanib, me`morlik va amaliy san`at bilan bog'liq holda ishlanadi. Bu san`at asosan bezag san`ati bo`lib, undagi tasvirlar ham ko`proq dekorativlashtirilgan holatda ifodalanadi. Bu san`at naqqoshlik, sahnalarni bezatish, kino san`ati va teleko`rsatuвшисьini bezatishani keng qo`llaniladi.

I-BOB

1.1. Rangtasvirda natyurmort va uni tasvirlash usullari.

Natyurmort va uni ishlanish usullari haqida fikr yuritishdan oldin biz rangtasvir haqida aytib o'tsak. Albatta har bir tasviriy san'at soxasi bilan faoliyati bog'liq inson xoh u rassom bo'lsin, xoh tasviriy san'at fani o'qituvchisi yoki shu soha bilan bog'liq bo'lgan hunarmand barchasi birinchi o'rinda qalamtasvirni yaxshi bilgan holda rangtasvirga kirib boradi (rangtasvirga bog'liq sohalarda). Shu o'rinda rangtasvir o'zi nima-?, rangtasvirda qalam tasvirning o'mi qanday- degan savollarga javob berib o'tamiz. Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar haqidagi talimot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, pannolar ishslash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan bo'lishi kerak. Ranglarni tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Batista Alberti, Leonardo da Vinci va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

Rang inson hayotida muhim ro'l o'ynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har xil tasir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo'lgan «xira»-deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi malum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar

yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy sanatning juda ko‘p turlari janrlarida rang ham, uni ishlata bilish ham juda katta ahmiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatlari ekanligi malum haqiqatlardan eng asosiysi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvirda ishlashga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o‘rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika ko‘rsidan malumki, ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo‘sish orqali olinadi. Ular qizil,sariq,ko‘k ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo‘sish orqali qo‘sishimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va ko‘kni qo‘sish orqali binafsha, qizil va sariqni qo‘sish orqali esa zarg‘aldoq, sariq va ko‘kni qo‘sish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyati: iliq va sovuq xususiyatlari bizga ma’lum. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq, zarg‘aldoq va ularga yashil ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo‘lgan ranglar kiradi. Shuningdek bular barchsi axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir biridan faqat och to‘qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq , kulrang, qora, qoraroq, juda qora,va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir biridan rang tusi bilan farq qiladi, ya’ni – qizil, sariq, ko‘k , yashil. jigarrang va hokazo.

Ranglar yana och-to‘qligi ya’ni och qizil, to‘q sariq. to‘q qizil, och sariq va to‘yinganligi ya’ni yorqin, xiraligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko‘rsatadi. Masalan,yashil rang fonida qizil rang yorqin bo‘lib ko‘rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishslashda rang garmoniyasini, ya’ni ranglar uyg‘unligini, bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo‘yoq , tempera, akvarel, guash kabi bo‘yoqlar ishlatiladi. Narislarni bo‘yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo‘lib,kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, o‘quvli tarzda ishlatish usullari texnikasini bilishni taqozo etadi. Bo‘yoqlar yordamida narsaning hajmi,

fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirda ishlashning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy etiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko‘rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq yaqinligiga qarab o‘zgarib ko‘rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko‘rinishiga ta’siridandir. Qog‘oz sathida ranglar munosabatlarini to‘g‘ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o‘rinlidir. Akvarel bo‘yog‘ida ishlash ham o‘z navbatida jiddiy o‘qib o‘rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg‘ulotdir. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o‘rganib borishni taqazo etadi. Arxromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya’ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektorining barcha ranglari hamda ularning bir birlari bilan aralashtiruvidan hosil bo‘lgan hamma ranglar jumlasidandir. Shuningdek, oq rang ham xromatik ranglar jumlasiga kiradi.

Xromatik ranglar axromatik ranglardan farqli o‘laroq, faqatgina yorug‘ik kuchlari bilan emas, balki nomlari, tuslari jihatidan ham ajralib turadi. Masalan,sariq rang qizil ranglar ham yorug‘lik kuchi bilan ham rangining tusi bilan ham keskin farq qiladi. Har bir xromatik rang uchta xossaga ega. Ular rang tusiga, rang yorug‘ligiga (bunda kam yoki ko‘p yorqinlik ko‘zda tutiladi), rang to‘yinganligiga (bunda kam yoki ko‘p yorqinlik ko‘zda tutiladi) ega bo‘ladi. Har bir xromatik rang ana shu uchta xossaga ko‘ra bir birdan farqlanadi.

Yuqorida aytilganlardan ma‘lum bo‘ladiki, xromatik ranglar bir biridan uchta asosiy xossasi-rang toni (rangning o‘zi), rangni och-to‘qligi va to‘yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektorni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o‘xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir biriga qo‘silsa, ulrning oralig‘ida qirmizi ranglar hosil bo‘ladi. Bu xosil bo‘lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o‘rtasida joylashtirib, spektor tutashtirilsa,halqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasidan qizil, qizg‘ish zarg‘aldoq, sariq, sarg‘ish yashil, yashil tab zangori havorang,

ko‘kimir havorang, ko‘k, ko‘kimir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tuslari ko‘rinadi.

Ranglar doirsida rang tuslari juda ko‘p bo‘lishi mumkin. Lekin ko‘zlarimiz ularni 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira bo‘ylab joylashish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo‘lakka bo‘linsa, birinchi yarmida qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havorang, feruza, zangori, ko‘k binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab – qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni cho‘g‘ni eslatса, havorang, zangori, yashil ko‘klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo‘lib, har qanday iliq ham o‘ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo‘lib ko‘rinishi va aksincha, sovuq rang o‘zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyilishi mumkin. Kimyo fani bo‘yoqlarning topilishiga , moddalarni kimyoviy usulda qo‘sib, bo‘yoqlarning retseplarini aniqlashga yordam beradi. Bo‘yoqlar asosan ikki xil yo‘l bilan tayyorlanadi. Bo‘yoqlarning nomlari ko‘pincha, qazilmadan qazib olingan joyning nomi bilan ajralib kelinadi.

Masalan, bo‘yoqlardan neopolitan sarig‘ini olsak, bu sarg‘ish malla rang bo‘yoq Italiyaning Neapol shaxri atrofdagi tog‘lardan vulqon bilan otilib chiqqan moddadан тайланади. Xalilovka oxrasi – oltin tusli buyoq bo‘lib, Uralda Orenburg rayonida Xalilovka qishlog‘ida olinadi. Hind sarig‘i – to‘q sariq bo‘yoq, Hindistonning Bengaliya shtatida o‘sadigan hurmo daraxti yaprog‘idan tayyorlanadi. Yana ayrim yorqin qizil bo‘yoqlarni kichkina jonivorlardan – dub daraxtida yashovchi ko‘ng‘izcha (kattaligi 2-8mm), Shimoliy Amerikada yashovchi qizil chuvalchangdan tayyorlanadi.

Rang tusi ranglarning to‘lqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko‘ra biz ko‘z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko‘ramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo‘yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko‘pdir. Rang tusining to‘lqinlar uzunligi o‘zgarmaydi. Chunki oq rang qo‘shilganda, faqatgina rang yorqinligi o‘zgaradi va qaytarish koeffisenti bilan

ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lcham uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang tuslari sprektor ranglariga qanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi shunchalik yaxshi bo'ladi . Rangtasvir va rang munosabatlari haqida quyida kengroq fikr bildirishga harakat qilamiz


Rangtasvir texnikasini egallah.

O'quvchilar birinchi bosqichdanoq akvarel texnikasida ishlashni o'qituvchi rahbarligida boshlang'ich yarimyillik davridayoq o'rganishni boshlaydilar. Kasbhunar kollejlari va oliygoh talabalri o'quv dasturlarida talabalardan rangshunoslikni ilmiy negizlarini egallahni, rangtasvirda ishlatiladigan ashyolarning xususiyatlari va ularni samarali ishlatish yo'llarini chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun o'quv dasturlari amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, ijodiy imtixonlar vaqtida esa amaliy vazifalar ko'rigidan tashqari, og'zaki so'rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir nazariyasi va metodalrini o'rganishda maqsad va vazifalarni oldinga qo'yib, mukammal o'rganib borish lozim. Talabalar auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim bo'ladi.

Natyurmortning qalamtasvirini bajarishda qo'yiladigan talablar, narsalarning xajmli shaklini tasvirlashdan iborat bo'lsa, bo'yoqlar bilan tasvirlashda esa, uning qanday materialdan ishlanganligi, hajmdorlik, yorug'-soya, tusi ham rang vositalari orqali ifodalanadi. Qalamtasvirda biz narsa va buyumlarni faqat och-to'qligini ko'rsata olar edik, rangtasvirda esa ranglar butun majmuasi va barcha sifatlari bilan namoyon bo'ladi. Ya'ni bo'yoqlar bilan tasvirlashda narsa-buyumlar o'zining aniq ranggi bilan emas, balki atrofidagi boshqa turli ranglar bilan bog'lanishda ko'zga ko'ringan ranggi ifodalanadi. Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi barcha ranglarni

shartli ravishda ikkita axromatik va xromatik ranglarga bo‘linishi va ularga qaysi ranglar kirishini biz yuqorida aytib o‘tdik. Ranglarni tabiiyligini tasvirda bajarish ancha qiyin ish. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo‘r mushoxada orqali erishish mumkin.



Natyurmortdagi narsalarining och-to‘qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o‘rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o‘tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangli bo‘yoq bilan ishlash usuli **grizayl** deb ataladi. Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o‘tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda mo‘yqalamni ishlatish yo‘llari va akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlarini o‘rganish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu usul bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o‘rgangandan so‘ng, barcha rang xillari bilan natyurmort rangtasvirini ishlashga o‘tish mumkin.

1.2. Natyurmort haqida umumiy ma'lumot

Tasviriy san`atda natyurmort (frantso'zcha natura so'zidan olingan bo'lib o'lik tabiat) ya`ni jonsiz narsalarni bir kompozitsion guruhda birlashtirishni bildiradi. Natyurmort mustaqil bo'lishi bilan birga u kompozitsion janrli kartina bo'la oladi. Tasviriy san`atda natyurmortning mustaqil ko'rinishda paydo bo'lishi, poeziya va dunyoda go'zal narsalarni tasvirlaydi.

Xar bir mavzuli tashkil etilgan natyurmort, o'zida olib borayotgan qisqacha mazmunli fikrni, kompozitsion tuzilishni, o'lchamni, xarakterli predmetlarni va ularning rangli ritmda bo'lishiga egadir. Xar bir postanovka qoidaga ko'ra estetik did va go'zal bo'lishi kerak. O"quv postanovkasida natyurmort o'zining jozibasiga ko'ra qalamtasvir elementar xatoliklarini, konstruktiv va perespektiv qoidalari, uning yorug' va soyasi kompozitsion tuzilishini tushuntirishga yordam beradi.

Narsaning asliga qarab rasmni ishlash mashg'ulotlarining vazifalari yildan-yilga murakkablashib boradi va u ko'prok talabalarni qalam, muyqalam, va boshqa o'quv qurollari bilan ishlash malakalarini o'stirishga narsalarning shakli, tuzilishi, rang va boshqa xususiyatlariga ko'ra bilishga qaratilgandir. Naturadan rasm ishslash jarayonida talabalar real ranglarini topishni o'rganadilar, o'zaro nisbatan taqqoslab solishtirib ko'rish yoqli bilan taxlil kilishni, kog'ozga tasvirmi kompozitsion jixatdan to'g'ri joylashtirishni o'zlashtiradilar.

Predmetning ranglarini topishda esa bir necha ranglarni qo'shish orqali yangi rang tusini xosil qilish malakalari rivojlanib boradi. Shuningdek simmetrik shakldagi narsalarning rasmini chizishda o'q chizigidan tug'ri foydalanishni xam o'rganadilar.

Natura uchun tanlangan predmetlar talabalardan perespektiv qisqarishlarni talab etmaydigan xolda qo'yiladi. Namunaviy topshiriqlar qatoridan assimetrik shaklga ega bo'lgap predmetlar ham o'rin olgan. Talabalar narsalarining asliga qarab, rasmni ishslash darslarida olgan bilim va malakalaridan keyinchalik mavzu asosida xotiradan va tasavvurdan rasm ishslash jarayonida foydalanadilar. Rasmi

chizilgan predmetlar talabalar yodida yaxshi saqlanib qolishi uchun ularni sinchiklab kuzatishlari yoki xotiradan chizikni ko'plab mashq qilishlari kerak bo'ladi. Bu xildagi mashqlar talabalarning bilim va malakalarini mustaxkamlash bilan bir qatorda, tasviriy qobiliyatlariga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Dastur talablarini bajarish maqsadida, narsalarning asliga qarab rasmini ishslash uchun bir qancha namunaviy topshiriqlar berilgan bo'lib, talaba o'zxonishiga ko'ra ularni almashtirishi mumkin.

Tanlangan natura talabalarga chizish uchun tavsiya etilayotgan predmetlariing o'ziga xos xususiyatlarini va ularning umumiy tomonlarini yaxshi bilib olishlariga imkon beradi.

Xotiradan va tasavvurdan rasm ishslash asosan talabalarning ijodiy tafakko'rilarini, qobiliyatlarini rivojlantirishga tushunchalar ko'lamini kengaytirishga qaratilgandir. Talabalarning tushunchalari qanchalik keng bo'lsa ular ishlagan rasm mazmuni boy va samarali bo'ladi.

Juda ko'p rassomlar o'zasarlarida mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlarini tasvirlaydilar, bunday rangli suratlar "Natyurmort" janriga mansub bo'lib, ya'ni jonsiz narsalar bo'lib hisoblanadi.

Bu janrda T.Krutskiy, R.Axmedov, I.Mashkov, S.Elizarov, S.Abdullaev, O.Abduraxmonov kabi rassomlar samarali mexnat qilganlar va juda ko'plab asarlar yaratganlar. I.Mashkovning "Tarvo'zva uzum" nomli suratini yaxshilab ko'zdan kechirsak bu ishda rassom tarvo'zva uzum orqali yoz faslini ko'rsatgan. U bu asarda ko'pincha issiq ranglar ishlatib tarvo'zva uzum pishiqligini ko'rsatgan.

O'quv natyurmortida drapirovska qo'shiladi, chunki unda skladkalar bo'ladi. Drapirovska fon uchun postanovkada qo'yiladi. Chunki narsaning formasini chiqarish va kontrast gruppasini birlashtirish ijodiy natyurmortdan ko'ra o'quv natyurmortining qattiq maqsadi bo'ladi. Natyurmort qoidaga ko'ra keyingi o'quv

masalasi bo'yicha qo'yiladi. U qo'yilganda xam, murakkab bo'lmasligi kerak va uni yutuqli tugatish kerak bo'ladi.

XVIII - asrda yashab ijod qilgan nemis rassomi Sharden natyurmortga katta hissa qo'shgan. U jahon rang tasviri tarixiga maishiy janrlı kartinaning ustasi sifatida kirib kelgan edi. Asosiy mavzusi oddiy odamlarni va uy-ro'zg'or buyumlarni tasvirlash edi. Shu natyurmort tiplardan yaxshi, chiroylı ishlangani va kompozitsiya jihatidan bo'lar "Natyurmort karobka bilan, turubka va kuvshin bilan", "San`at atributlari" asarlaridir.

XVII — asrda natyurmort janrida asosiy chiziqlar to'plangan. Bu yerda taniqli rang tasvir ustalari ishlagan, bo'lardan Rembrand, Surikov va boshqalar. Bularni hammasini bir umumiyl intilish bo'langan — jahon garmonik narsalarini ko'rsatish insonni bog'lab turishi, ularni forma va materialning go'zalligi.

P.P. Chistyakov "Tabiatda hamma narsa mavjud va qanday shakl borligidan qat'iy nazar perspektiva qonuniga bo'ysunadi. Perspektiva qonunidan foydalangan holda siljimaydigan naturalarni haqqoniy chiqarish mumkin".



Maktabda o'qitiladigan xar bir fanning o'ziga yarasha maqsadi va vazifalari bo'lib, ularning o'quvchining xar tomonlama shakllanishida roli katta. Mazko'r fanlarning o'qitilmasligi yoki metodik jihatdan past saviyada o'tilishi bola ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi, albatta..

Maktabdagi tasviriy san'at darslari yosh avlodning har tomonlama va to'la shakllanishini uchun zarur bo'lgan muhim omil hisoblanadi. Tasviriy san'at darslaridagi jarayonlar, xususan, mavzu asosida rasm chizish mashgulotlarning vazifasi quyidagilardan iboratdir: o'quvchilarda fanlarning vazifasi, shakli, rangi va boshqa sifatlarini e'tiborga olgan xolda fanning va tabiat xodisalari hakidagi go'zallik tushunchalarni; shakllantirish.

Mavzu asosida rasm chizish bilan bog'liq bo'lgan kuzatishning dastlabki, malakalarini rivojlantirish; rasm uchun nihoyatda qiziqarli syujet tanlay olishga o'rgatish.

Rasmni umumiy sxemadan boshlab, undagi asosi narsani farqlagan, alohida bo'laklarga bo'linish orasidagi bogliqlikni hisobga olgan holda komponovka qilish va uni qog'oz betida to'g'ri joylashtirishga o'rgatish. Bu narsa faqat uning o'lchovlari uchun taaluqli bo'libgina qolmay, balki shakllar va rang birikmalarning muvozanatini qog'oz betida to'g'ri saqlashga ham tegishlidir;

Rasm chizishda narsalarni fazoviy xolatda tasvirlay olish malakalarini shakllantirish, ularning ko'zdan uzoqlashgan sari qisqargandek tuyulishini tushuntirish, «ufq chizig'i», «ko'rish nuqtasi» va boshqa tushunchalar bilan tanishtirish va ular orqali kuzatish perspektiva hodisalarning mazmunini ochib berish;

Mavzu asosida rasm chizishda fanlar tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini va predmet bo'laklarini, shuningdek predmetlar urtasidagi nisbatlarni hisobga olgan xolda tasvirlash malakalarni shakllantirish: rasmda odam shaklining tuzilishi imkonи boricha to'gri tasvirlashga o'rgatish;

Tematic rasmlarda rang va yorug-soya nisbatlarini muvozanatni to'g'ri saqlay olish malakalarni o'stirish.

Metodist olimlardan E.V.Shoroxov «mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarning tarbiyaviy vazifalariga quyidagilarni kiritadi:

Badiiy didni tarbiyalash;

Tasviriy san'atni, hayotni kuzatishga qiziqish va ularga nisbatan muhabbat uyg'otish; qobiliyatni o'stirish;

Tasavvurlarni ijodiy qayta ishlash malakalarini o'stirish; Mamlakatimiz hayotni tiganmas go'zallik manbai sifatida tushunishni tarbiyalash».

Shuningdek, boshlangich sinflar tasviriy san'at dasturlarida tematik rasm chizishning bir qator formalari belgilangan bo'lib, ular bevosita estetik tarbiya bilan bogliqdir.

Mavzu asosida rasm ishslash jarayonida rasmni qogoz betida to'g'ri joylashtirish, surat kompozistiyasini aniqlash, suratdagi obrazlarni ifodalash kabi barcha ishlar haqida ham xuddi shu gapni aytish mumkin.

1.3. Natyurmort janrida ijod etgan rassomlar

Ma`lumki, natyurmort tasviriy san`atning mustaqil, asosiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maktab tasviriy san`t darslarida ham, kollej va oily ta`lim darslarida ham eng ko`p chizganimiz bu – natyurmort va uning elementlaridir. Men yana natyurmortlarga murojaat qildim. Buning boisi esa, oddiy natyurmortni juda yoqtiraman. BMIda natyurmort chizish bilan birga natyurmort haqidagi nazariy bilimlarimiz ham aks etishi lozim. Shuning uchun quyida natyurmortning janr xususiyatlari xususida va natyurmortchi musavvirlar haqida fikr yuritaman. Ma`lumki, natyurmort fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib “jonsiz tabiat” degan ma`noni anglatadi. Natyurmort asosan dastgohli rassomlik (rangtashvir va grafika) da, qisman haykaltaroshlikda (asosan rel`efda) ishlatiladi. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo‘ladi. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum, narsalar, sabzavot va mevalar, asbob - uskunalar kabilarga o‘xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos. Ma`lumki, har bir rassom tasviriy san`at sirlarini o‘rganishni natyurmort chizishdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o‘zlashtirish san`atning boshqa jihatlarini va turlarini o‘rganishdagi dastlabki saboqlardir. Natyurmortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to‘ldiradigan) buyumlar o‘z egasining fe`l atvorini, qiziqishlarini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik holatlarni ko‘rsatishga qaratilgan.

Natyurmort qadimgi Misrda devorga ishlangan freskolarda, ellinizm davri mozaikalarida Xitoyda (qush va gullar) kompozitsiya bo‘lagi sifatida ma`lum bo‘lgan. Yevropada XIX asrning oxiri XVII asrning boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo‘ldi va keng tarqala boshladi. Natyurmortning eng taraqqiy etgan davri XVII asrlarga to‘g‘ri keldi. XVIII asrdan boshlab natyurmort atamasi qo‘llanila boshladi. Italian rassomi M.Korovajo va uning izdoshlari natyurmortning keng tarqalishida muhim ro‘l o‘ynaydi; gul va mevalar, dengiz

in`omi-baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (B.K.Xeda, P.Kels va boshqalar), Flandriya (F.Speydors, Y.Feyd) Ispaniya (F.Surbaran) Fransiya (J.Shardenn) bu borada yuksak taraqqiyotga erishdi. XX asrlarda natyurmort realistik an`analarini Meksikada R.Ribera, R.Sikeyros, Italiyada R.Guttuzolar davom ettirdilar. Rossiyada natyurmort XVIII asrda paydo bo`ldi. Ko`zni aldaydigan “Xuddi o‘ziga o‘xshash” (aldamchi) rasmlar ishlandi (G.A.Teplov, P.G.Bogomolov). XIX asrning birinchi yarmida haqqoniylilikka, borliqni o‘zidan go‘zallik topishga harakat qilindi. M.A.Vrubel, K.Karobin, I.Grobarlar shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuqlarga erishdilar.

O‘zbek tasviriy san`atida natyurmort usullari qadimgi davr san`atida (masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi meva), miniatura san`atida (masalan, K.Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar siyohdon, qamchi va boshq) uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30-50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo`ldi. L.Nasriddinov (“Nonli natyurmort”), Sh.Xasanova (“xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort”); M.Kazin, B.Rojdestvenskiy, V.Chorintsev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, O.Totevosyan, S.Abdullaev, V.Fadeev, Yu.Elizarov va boshqalar natyurmort janrida sermahsul ijod qildilar. 60-80-yillarda L.Salimjanova, Yu.Talkin, R.Choriev, V.Burmakin, G.Meltinovlar ijodida natyurmort keng o‘rin tutadi. Rassomlar R.Axmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov va boshqalar natyurmortda samarali ijod qilib natyurmortning taraqqiyotini ta`minladilar. Bugungi kunda ham natyurmort tasviriy san`atning mustaqil janri sifatida gurkirab rivojlanmoqda.

Hozirgi zamon O’zbekiston tasviriy san`atining manzara, portret, natyurmort va maishiy janrlarida ijod qilayotgan o‘zbek rasomlaridan biri Laylo Salimjonovadir.

Laylo Abubakirovna Salimjonova 1936 yilda Samarqand viloyatining Urgut shaxrida tug’ilgan. Otasi prokuror bo’lib, onasi uy yumushlari bilan band

bo'lgan. Ushbu oila 1941 yilda Toshkentga ko'chib keladi. Oilada san'atga daxldor kishi bo'lmasa ham, Laylo o'rta maktabning 8-sinfini tamomlab, o'zining qiziqishi tufayli P.P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtining Tasviriy san'at bo'limiga o'qishga kiradi. Bilim yurtini 1957 yilda muvaffaqiyatli bitirib, shu yilning o'zida N. N. Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomlik institutining "Tasviriy san'at" fakultetiga kirib, 1963 yilda tamomlaydi. U yyerda Ne'mat Mirzaboevich Qo'ziboev, Ogonesov, Sosedov, Raxim Axmedov kabi rassomlar qo'lida san'at sirlarini o'rganadi.

Yosh rassomni marg'ilonlik kashtachi qizlarning qo'l mehnati bilan yaratadigan ajoyib ishlari qiziqtirar edi. Shu bois diplom ishini Raxim Axmedov rahbarligida "Marg'ilon kashtachilar" mavzusida himoya qildi.

"Saodat" jurnalining bosh muharriri shoira Zulfiya, Laylo Salimjonovani talabalik davridayoq "Saodat" jurnalida ishlashga taklif etadi. Uning ishi rassomga diplom ishini ishslash uchun o'z kabinetini bo'shatib berishi, shoiraning Salimjonovaga nisbattan hurmati cheksizligidan dalolatdir. Shu tariqa Laylo Salimjonova "Saodat" jurnalida 30 yil mobaynida bosh rassom bo'lib ishlaydi. Keyinchalik "Guliston" jurnalida ham bir necha yil ishlab beradi. Bu orada O'zbekiston Rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi kabi unvonlarga sazovor bo'lgan.

Laylo Salimjonova 60-70 yillardagi ko'rgazmalarda asosan portret janridagi asarlari bilan qatnashar edi. Bunda "Jamila Jumaeva", "Keremika", "Bahri G'ulomova", "Zulfiya" kabi portretlari diqqatga sazovordir. Keyinchalik Salimjonova ijodida ayollar obrazi mukammalshib bordi.

Buni "Halima Xudoyberdieva", "Onalik", "Yashnaxon portreti", "Singlim portreti", "Ma'mura Boboyeva", "To'quvchi qizlar", "Farida portreti", "Arxitektor M. Xudoynazarova", "Dilorom Qambarova", "Zamira Hidoyatova", "Hamro Rahimova" kabi portretlarida ko'rish mumkin. Birgina "Hamro Rahimova" portretining yaratilish tarixiga nazar tashlasak, qiziq hikoyaning guvohi bo'lamiz. Rassom asar yaratishga material to'plash maqsadida xalq o'yinchoqlari ustasi Hamro Rahimova uylariga borib, ularning xonardonlarida bir necha kun mehmon

bo'ladi. Salimjonovani betakror o'yinchoqlarning yaratilish bosqichlari qiziqtirar edi. Bu jarayonni o'z ko'zi bilan ko'rgan rassom shu ondayoq yaratilajak asarining kompozitsiyayechimini topgan edi. Laylo Salimjonova ustanning mehnat jarayonidan eskizlar olar, ba'zida uni savollarga ko'mib tashlar edi. Shu tariqa "Hamro Rahimova" portreti yaratilgan. Biroq bu asardagi notanish obrazlar-turli yoshdag'i bolalar tasviri tomoshabinni ajablantiradi.

"Hamro Rahimova maxsulotlari asosan bolalar uchun. Bu betakror o'yinchoqlarni bolalar bilan birga tasavvur qilishimiz kerak. Ustaning xovlisida bu quvnoq bolalarni ko'rmagan bo'lsamda, o'zimda bu obrazlarni ham asarga kiritish istagi paydo bo'lgan", -deydi asar muallifi. Salimjonova tabiatni tasvirlashda ham o'z yo'naliishiga ega. Bunga "Soy bo'yida", "Oqtosh", "Varراك", "Hovlida", "Qoratosh", "Tog'da kuz" kabi yorqin asarlari misol bo'la oladi. Ayniqsa, "Tog'da kuz" asarining mazmuni kompozitsiya jihatidan chuqurroqdir.

Asarda ilgari surilgan g'oya deb, kuz faslining go'zalligi, musaffolik, sokinlik kabi tushunchalarni e'tirof etish mumkin. Savlatli tog'lar, barglari sarg'aygan daraxtlar, qirg'og'i toshlar bilan o'ralgan zilol suv va boshqa manzara unsurlari yuqori tasviriy savodxonlik darajasida ishlangan.

Laylo Salimjonova gullarni juda sevadi. Uning "Xrizontama natyurmorti", "Oq gullar", "Zangor fondagi gullar", "Xrizontemalar" kabi asarlarini kuzatib, gullardagi go'zallik-rassom ijodining asosiy mavzusi deyish mumkin.

Xususan, 1991 yilda yaratilgan "Xrizontemalar" nomli natyurmorti alohida e'tiborga molik. Bu gullarning vazada tartibsiz joylashuvi, ularning issiq rangli fonda jilolanishi, hamda qisman ko'ringan stolning perspektiv holati asar kompozitsiyasini yahlit namoyon etadi. Salimjonava mo'yqalamiga mansub go'zal asarlar Angliya, Iordaniya, Isroiil, Hindiston kabi ko'plab davlatlargacha yetib borgan. "Qora kofe" nomli natyurmorti esa Angliyada shaxsiy kollekstioner tomonidansaqlanib kelinmoqda.

Rassom ustozlarini yod etar ekan, Rahim Ahmedov qo'lida olti yil ta'lim olganligini faxr bilan tilga oladi. Rassom ijodiga Kovalevskaya ijodi ham katta ta'sir o'tkazgan. Salimjonova 70-yoshga kirgan bo'lishiga qaramay, haligachabu

rassom ijodidan ko'p narsa o'rganib boradi. Z. Inog'omov, M. Saidov asarlarini sevadi. Jahon san'ati namoyondalaridan Van Gog ijodiga o'zgacha hurmat bilan qaraydi.

Bir necha yildirki rassom qarilik gashtini surmoqda. Shu bilan birgalikda barcha ko'rgazmalarda qatnashib keladi. Shu kunlarda Salimjonova portret, natyurmort janrlarida kichik xajmdarasmlar ishlab turadi.

“Katta kompozitsiyalar ishlashga bugungi kunda imkoniyatim, sog'lig'im ham yo'qligi sababli, kichik rasmlar ishlab turaman”-deydi Layloxon opa. Rassomning ustaxonasi Oqtepada joylashgan bo'lib, u yerdahozir o'g'illari ijod qiladi. Laylo Salimjonovaningijodi oilasiga ham ta'sir qilgan. Buni rassomning o'g'illari Axmad Boboev ijodida yaqqol ko'rish mumkin.

O'g'illari ko'proq kinofilmarda rassom bo'lib ishlaydi. Qizlari Lola Boboeva ham onalarikasbini hurmatlab, dizaynerlik san'atini egallagan. Uning ishlari AQSh hamda Parij ko'rgazmalarida ham namoyish qilingan. Salimjonovaning Sanjar ismli nabirasi ushbu rassomlar sulolasining davomchisi bo'lish niyatida bo'lib, Respublika Rassomlik kollejida taxsil olmoqda. Oilaboshlig'i BaxtiyorBoboev esa Mashhur o'zbek rassomlaridandir.

“Bugungi yoshlarda imkoniyat katta. Ular ishlasin-da. Bizda bunday imkoniyatlar yo'q edi. Bugun esa hatto chet ellarga chiqishga ham yoshlarning yo'li ochiq. Biroq yoshlar ijodida g'alati yo'nalishlarni kuzatish mumkin: go'yoki ular nima hayollariga kelsa, shularni ishlayverishayotgandek. Muzeylarda yoshlarni uchratish qiyin. Ko'rgazmaning ochilishida kelishadi, ikkinchi kundan boshlab ularni ko'rmaysiz. Yoshligimizda muzeylarga borib, rang surtmalari qanday qo'yilganligini hatto hidlab ham ko'rар edik.

Biz Ro'zi Choriyevlar bilan birga o'qib, Rahim Ahmedov, Ne'mat Qo'ziboev kabi rassomlarga suyanar edik. Ijodiy masalalarda ular bilan maslaxatlashar, san'at borasida ko'p suhbatlar qilar edik. Biz bir guruh edik. Hozirchi, milliy rassomlar, hayotni ko'ra oladigan ijodkorlar yo'q. Yoshlar esa san'atdan ko'ra ko'proq kompyuter kabi texnikalarga berilib ketgan. Axir tasviriy san'at-insoniyatning katta baxti, u hammaga ham berilmaydi”,-deydi rassom

kuyunchaklik bilan.

“Kelajakda qancha umr qolgan bo’lsa, ko’zim ko’rganicha chizaman. Rassom bo’lganimga ming shukrlar qilaman. Hayot qisqa ekan, imkoniyat borida ijod qilib qolish kerak. Rassomdan faqat uning asarlari qoladi. Bu asarlar necha yillar o’tsa ham, qachondir o’z bahosini topadi. Hozir Usta Mo’mun, Ufimstev asarlarinitopa olmaysiz. Bu kabi qo’lda ishlangan asarlar yurakdan chiqadi. Ularning bahosi oshsa-oshadiki, aslo kamaymaydi.

Van Gog hayotligida o’z asarlarini deyarli birortasini ham sota olmagan ekan. Biroq, bugungi kunga kelib uning birgina asari 47 mln. dollarga baholanishi yuqoridagi gapimning isbotidir. Lekin uni tirikligida ham saqlash, hurmat qilish kerak”-deya rassomning aytgan fikr-muloxozalari har qanday kishi ko’nglini san’atga yaqinlashtiradi.

Malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko’ra bilishi va mohirona tasvirlay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning haqiqiy borliqdagi ko’rinishini tomosha qilishga muyassar bo’ladi. Aynan shartli rang haqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo’lib hisoblanadi.

Tajribali rassomlar yorug’lik ranglari ta’siridagi tabiatda sodir bo’layotgan nozik o’zgarishlarni ham bo’yoqlar vositasida mohirona tasvirlaydilar.

Agarbitzungioynuridatasvirlanganbirqatorasarlarlarniko’zdankechirsak, hammasidako’kimtir – yashiltuslaryig’indisiniko’ramiz; quyoshbotishiyokioqshom vaqtida, sun’iy elektrda yoritilgan asarlarda sarg’ish-olovrang yoki qizg’ish koloritni ko’rish mumkin.

V.Serov, I.Repin, M. Nabiev, O’.Tansiqboev, R.Axmedov, A.Mo’minov, I. Xaydarov, P. Benkovlarning ko’plab asarlarida sun’iy elektr yorug’ligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarni yuqori malakada tasvirlanganligini guvoxi bo’lamiz.

Naturadan tasvirlanayotgan ranglavxa koloritikunning qaysi vaqtida, qanday yorug’lik manbai bilan yoritilganligiga bog’liq.

Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P.Chistyakov bu borada: «Ranglarni aniq ko’rish uchun, tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko’rishga yordam beradi» deya qat’iy maslahat bergen.

Natyurmort mavzusida bajarilgan dastlabki tasvirlar asl ma’nosiga ko’ra parrandalar, yovvoyi g’oz, o’rdak, quyon kabilardan iborat bo’lgan. Keyinroq esa rangtasvirda uy-ro’zg’or buyumlari, gullar mevalardan tashkil topgan Kompozitsiyalar yuzaga kela boshladi. Ular “Osoyishta hayot”, “Buyumlar hayoti”, “Uy-ro’zg’or buyumlari” deb yuritila boshlangan edi. Garchi shunday bo’lsa-da, natyurmort iborasi to hozirgi kungacha o’z nomini qat’iy ushlab qoldi. Chunki, bajarilgan tasvir o’z mazmun va g’oyasi bilan “jonsiz” jism ekanligini muntazam yuzaga chiqarib turganligi fikrimiz dalilidir.

Fikrimizning dalili sifatida 19 asrning o’rtalarida rus rassomi P.A.Fedotov tomonidan yozilgan “Yangi unvon” kartinasini kuzatib tahlil qilar ekanmiz, zabit amaldor navbatdagi unvонни olganligi va kech oqshomda uning uyida juda ko’p mehmonlar olqishlashga kelganligi tufayli, xonada saranjomlik yo’qolgan, ertalab eshik qo’ng’irog’i jiringlagach, u eshik tomon boryapti. Stol ustida idishlar va boshqa buyumlar tartibsiz sochilib yotganligini kuzatamiz. Barcha-barchasi, ya’ni detallar xonada nima hodisa yuz bergenidan xabar beryapti. Hatto erda yotgan non ushoqlari ham qizg’in bazm bo’lganligidan dalolat beryapti. Xonadagi barcha tartibsiz buyum yoki jihozlar bo’lib o’tgan voqeadan tomoshabinni voqif etyapti.

Aslida, rassomlar natyurmort janriga bundan ilgariroq e’tiborni ajratishgan edilar. Bu janr ular faoliyatiga 16 asr oxirlariga kirib kelgan bo’lsada, hanuzgacha u mustaqil yo’nalish sifatida tan olinmagan edi. 19 asrning boshlariga kelib bu yo’nalish doirasi yanada kengaydi. Har xil buyumlar, rang-barang ohanglarda go’yo musiqadek o’ziga tortadigan jozibaga ega bo’la boshladi. Natyurmort mavzusida yozilgan kartinalar atrofida turli kasb egalari, olimlar, musiqachilar va san’at ixlosmandlari qiziqish bilan to’plana boshladilar. Ular orasida eng sevimli mavzu er va undan unib chiqqan tabiat in’omlari bo’lib, ularga nisbatan falsafiy qarashlar yuzaga keldi. Ayniqsa, golland rassomlari yozgan natyurmortlar 17 asr rangtasvirida quyidagilardan bayon qiladi: odatda natyurmortlar yovvoyi hayvon

yoki qushlar go'shti, turli meva va poliz mahsuloti solingan savatlar, baliq mahsulotlari va chiroyli, xushbo'yo gullarni tashkil etgan. Tasvirlarning barchasida hayot zavqi, inson qo'li bilan bunyod qilingan o'ta chiroyli sabzavot, meva va gullar nafis go'zallik hosil qilyapti. Natyurmortlar faqat rangtasvir bo'libgina qolmay, balki insonning kundalik turmushi, uyhro'zg'orida doimiy ishlatiladigan buyum va jihozlar haqida hikoya qiladi. Ular o'sha paytda "nonushta", "gazak", "desert" nomlari bilan atalgan. Yuqorida biz natyurmort janrining ayrim qirralarini ochib berishga harakat qildik.

Alohida rangtasvirning bu yo'nalishi o'zgacha mazmun va chiroyga ega bo'ldi. Ayniqsa, 18 asrda yashab ijod etgan franstuz rassomi J.B.Sharden natyurmortlari g'oyat go'zal va mukammal echimga egadir. Rassom hr bir ishga puxta tayyorgarlik ko'rib, nihoyat ta'sirchan, mukammal echimga ega bo'lган Kompozitsiyalar yaratgan edi. U hech bir narsaga e'tiborsiz bo'lmas, o'z ishidan zerikmasdan tasvirlarni nihoyasiga etkazardi. U yaratgan kartinalarda kostryulka, qozonchalar, krujka, tuxum, sabzavotlar – piyoz, kartoshkalar kabilar o'z aksini topganligini ko'rib ko'nglingiz quvonchga to'ladi. Garchi inson ular bilan muntazam muomalada bo'lган bo'lsada, gohida ularga e'tiborsiz bo'lганliklari ham alohida ta'kidlanyapti. Rassom mohirlik bilan buyumlar va boshqalar orqali inson qalbiga iliq harorat olib kiriyapti. Sharden o'ta ustalik bilan har qanday jonsiz buyumning asl shaklini, rangini mohirlik bilan etkaza olgan, ularga jon ato qilgan, natijada har qanday tomoshabin uning kartinalarini tomosha qilibgina qolmay, balki qaysidir darajada zavq olganligi juda ham muhim. Shakl va rang echimlari shu darajada mukammalki, kishi o'zini go'yo badiiy asar o'qiyotgandek yoki musiqa tinglayotgandek sezadi.

Umuman, har qanday rassom bu mavzuga ma'lum bir vaqtini sarflaydi. Garchi portret, manzara yoki boshqa mavzularda ijod qilishsada baribir natyurmortdan yuz o'girishmaydi.

Masalan, I.E.Repin, N.Kramskoy, I.Levitan, K.Korovin, V.Vrubel, A.Gerasimov, o'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, G'.Abdurahmonov, N.Kashinalar ham bevosita natyurmort mazusida bir necha asarlar yozishgan.

Chunki natyurmort narsaning asl shaklini va rangini o'rganish uchun ijodiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Rassomning bu mavzuga bo'lган qiziqishi Kompozitsiya mazmunini boyitish, g'oyani ilgari surish, maqsadni yuzaga chiqarish kabi qonunlar bilan bir qatorda insonning qalbini maftun etgan go'zallik va estetik tuyg'ular bilan sug'orishdan iborat. Insonlarning intilishlari esa aynan shunday nozik tuyg'ular bilan hamohang.

1.4. Natyurmort ishlashda moy bo'yoqlardan foydalanish usullari

Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Lmmo bu Mashg'ulotning jiddiy Qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir -gexnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tailash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo'yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yoqli natyurmort ranggasvirini ishlash jarayonining ayrim gomonlarn akvarel texnikasiga o'xshash. Chunki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchui tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasyir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ham bajarilishi mumkinligidandir, Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shunisi ham borki oq. rang qo'shilgach bo'yoqning yorqinligi ma'lum darajada kamayadi. Bupi o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish lozim. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq mudda'gli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish, asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashyolardan foydalaniladp. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama tortib olingan (gruntlangan) mato, moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoqtaxta (politra), mo'yqalamlarning turlichay katgalikdagi xillari, «mastixin» va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigai omillardan biridir desak xato bo'lmaydi., Uning qonlamasi (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib u quyidagichadir: 5 foizli elim (jolatin, baliq yoki duradgorlnk elymi) arolashmasi shunga teng hajmdagm bo'rga qo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilganlan so'ng qoplama bo'yoq qatlami tayyo[»]lab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'pi - maxsus oqartirilgan (ofgobda toblangan) rashtasvir yot, quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi, Yog' va kukunning nisbati shunday bo'lish kerakki u tayyor, maxsus idishga solib chiqariladigan moybo'yoqlardan euyuq bo'lmasin. Shuida uni bemalol matn» sathiga «mastixii» bilan tokis qilib surgib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 hafta quritilgach g'adir-budir erlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislapodi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam («fleyts») bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulla tayyorlanaligan mato 2-3 oy mobaynida o'qitiladi. U saqlangan joy iliq va yorug' bo'lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. 1 1. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng elim aralashmasi bo'r va oq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning garkibi quyuq bo'lib qolgudek bo'lsa, o'Ts1a elim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida qurishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart.

Qoplamlalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalayaish galab egiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiagda ettita asosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular qizil, iorag'1ji, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan taxtada (politreda) bo'lishi juda -zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko'k bo'yoqdir. Chunki ularni boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida hosil qilib bo'lmaydi. Bularning aralashmasidan juda ko'p, deyarli barcha ranglarni chiqarish, hosil qilish mumkin. Ulardan hatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va uquv bo'lishi kerak.

Shuni ham ta'kiddab o'gish kerakki tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanip turganday bo'ladi. Masalan, qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarni tonib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar bajargand.1 mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katga ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shno ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo'lnishp mumkin. Moyliroki bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bila;t foydalanilgan paytda ranggasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladig'ap tasvirlarni ishslashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarni ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilitim mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigap maxsus taxtacha (politreda) pipg yuzasid.1 bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi

ham muxim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilish mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada eski ranglar qatornning boshlanishida bo'ladm Agar har safar bir xil joylari turli, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatnsh imkoniyatiga ega bo'ladi.

Monbo'yoqda tasvirlar gammasining juda ko'p o'rganish kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularnmng barchasi ko'n mashk, qilish orqali o'rganib olish imkonipi beradi. Tajrnb.1 nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabnyoglarni mutolaa qilish ham yaxshi yordam beruvchi vositalir.

II-BOB

2.1. Natyurmortni gullar asosida bajarish jarayonida kompozistiyava rang munosabatlari

Tematic rasm chizish mashgulotlarida kompozistiya eng muxim va murakkab masalalardan biridir. Tasviriy san'at asarlaridagi kompozistiyaning prinstip va qonunlari bilan o'quvchilarning mazmunli rasm chizish usuli urtasida umumiylilik bor. Shuning uchun tasviriy san'atdagi kompozistiyaning hamma qonunlari maktab tasviriy san'at predmetidagi kompozistiyaga yoppasiga tadbik mumkin. Kompozistiya yuqorida ta'kidlaganimizdek, tematik rasm chizishda eng murakkab masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlangich sinf bolalarinnng rasmlari fakat perspektiv va rang jixatdangina emas, kompozistiya jixatdan xam bush bo'ladi. Buning sababi bolalarning ijodiy tafakkko'ri, tasavvuri va fantaziysi kerakli darajada zarur bilimlar bilan boyitilmasligi va rivojlantirilmasligidadir. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar tasavvurining asosini bizni o'rab olgan borlik tashkil etadi. Agar rassom xayotdagি narsa va xodisalarni kuzatishga etarli e'tibor bermas ekan, uning yaratgan asari mazmunan boy va badiiy jixatdan yuksak bula olmaydi.

Kuzatishlarni tashkil etishda o'qituvchining roli kattadir. Biz kuzatish olib borgan maktablarda tevarak-atrofga eksko'rsiya uyushtirilgan sinf o'quvchilarning rasmlari sifati sayohatga chikmagan o'quvchilaring ishlariga qaraganda ancha yuqori bo'ladi.

Tasviriy obrazlarni shakllantirish tashki muxitni bilish vositalardan biri hisoblanadi. «Obrazlarning ikki kategoriyasi bo'ladi, -deb yozadi E.V.Shoroxov, - ba'zi obrazlar tez paydo bo'ladi va tez yo'qoladi. Boshqa obrazlar u yoki bu predmetlar atroficha urganilayotganda, real borliqni aktiv o'rganish jarayonida paydo bo'ladi. Bu obrazlar asta-sekin ko'rildi va asosan analistik –sintetik faoliyatga suyangan holda boyib boradi.

Bu faoliyat jarayonida obrazlarning eng muxim va zaruri tanlab olinadi, ikkinchi darajali hamda tasodifiylari chikarib tashlanadi. Ikkinci darajali obrazlarning ongda paydo bo'lishi tasavvur, tafakko'r va iroda bilan chambarchas bogliqdir. Har qanday yaratuvchanlik faoliyatida ishtirok etuvchi obrazgina tasviriy faoliyatning asosi xisoblanadi».

G`oyaviy mazmuni ochib berish va predmetlar urtasidagi mantiqiy aloqani tasvirlash kompozistiya ko'rilishida va uning ta'sirchanligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchi rasmida tasvirlanayotgan hodisa yoki narsalar obrazi katta analitik-sintetik faoliyatning natijasidir. Rasm yaxshi chikishi uchun o'quvchi xamma predmetlarni birgalikda va alohida xamda ularni uzaro bogliq holda tasavvur etmogi kerak.

Kompozistiya qonunlarini bolalar ongida etkazish tasviriy san'at asarlari va kitob illyustrastiylaridan foydalanish va ularni tahlil qilishning ahamiyati katta. Kompozistiya simmetriya va muvozanat masalalari xam surat ta'sirchanligini oshirishda katta rol o'ynaydi. A.A. Rilovning «Moviy kenglikda », A.I.Kuindjining «Kayinzor», M.Saidovning «oila», «Tong» kabi suratlari shular jumlasidandir.

Suratdagi kompozistiya ta'sirchanligi oshirishda uning o'lchovi va formati to'gri aniqlash ham muhim. Format shakli va o'lchov rassomning goyasi, asar mavzusi va mazmunida bogliq bo'adi.

Surat ishlashda format xam muxim xisoblanadi. Agar surat kishiga bir butun va ta'sirchan tuyulsa, uning formatini o'zgartirish kiyin. Chunki rassom asar eskizini ishlashjarayonida obrazlarni xar tomonlama anik va uylab joylashtirgan bo'ladi. Agar portretda figura tikkasiga tasvirlanadigan bo'lsa, rassom formatni uzunasiga tutadi. Kompozistiyani me'yoriga etkazishda turli material va ranglardan urinli foydalanishning roli katta.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida kompozistiyani muvaffaqiyatli xal etish uchun avvalo surat chizishni ufk chizigidan boshlashning roli katta, birinchida ufq

chizigi qogoz betining yuqorisidan, ikkinchisida esa uning pastidan o'tgan. Rassom yuqori ufq chigini keng manzara yoki katta ob'ektni aks ettirmoqchi bo'lган taqdirdagina tanlaydi. Shuningdek, rassomlar kishilar tasvirini er fonida yaxshi ko'rsatish maqsadida ham shunday ufq chizigini tanlaydilar.

Ikkinci rasmda ufq chizig'i qogoz yuzasining urtasidan pastki qismida joylashtirilgan. Ufq chizigining bu holatda o'tkazilishi rassomning osmondag'i yoki yuqoridagi narsa yoxud xarakatni ko'rsatishi bilan bogliqdir. Ufq chizigining «Fazoga parvoz», «Kuzda daraxtlar» kabi mavzularda rasm chizdirish pastdan olinishi yaxshi natijalar beradi.

Uchinchi rasm yuzasining urtasidan o'tkazilgan ko'rinishi tasvirlangan. O'qituvchi ufq chizigining qachon bunday holatda chizilishini quyidagicha tushuntirish mumkin: ufq chizigining bunday xolatda olinishi ob'ektni kuzatilganda tomoshabinga uning yuqori qismining ufq chizigidan barobar uzoqlikda ekanligi haqidagi tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Biroq suratdagi muvozanat unda tasvirlangan narsalarga bogliq bo'ladi. Agar rasmda kichik uylar yoki daraxtlar tasvirlangan bo'lsa osmon ancha engil bo'lib tuyulsa, pastki qism ancha ogir ko'rindi.

Perspektiv qisqarishni qog'oz betida tasvirlashda esa quyidagi qoidaga amal qilmoq darkor. Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin ko'ringan buyum yoki jonli zot kogoz betining pastki qismida tasvirlanadi va aksincha, kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko'rindigan buyum yoki jonli zotlar esa kogoz betining yukori qismiga chiziladi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda xam, yakinda xam joylashmagan ob'ektlar kogoz betining urtasida tasvirlanadilar. Xuddi shu usulda xar kanday narsalarning rasmini ishlash mumkin. Bunda chiziladigan narsalar ulchovi odam rasmining ulchoviga nisbatan aniklanadi. Bunday usulda tasvirlanadigan narsalarning ulchovlari xakikatgayakin va to'g'ri bo'ladi.

Rasm chizish mashg'ulotlarida perspektiva qoidalarini bolalarga amal kilish lozim:

- a) o'quvchining o'zi chizgan tayyor ko'rgazmali ko'rollar orqali;
- b) tasviriy san'at asarlari reprodukstiyalarini ko'rsatish orqali ;
- v) o'qituvchining o'zi doskada chizib ko'rsatish orqali.

Mavzu asosida va illyustrativ rasm chizish jarayonida rangning roli benixoya kattadir. Rang tasvir mazmuni va goyasining tula ochilishiga, uning emostional ta'sirini kuchaytirishga, shuningdek, kompozistiyadagi muvozanatni saklashga xizmat qiladi. Rangning asosiy xususiyatlari uning yorkinligi (och-to'qligi), tusi va to'yinganligi bilan belgilanadi.

Tasviriy san'at mashgulotlarida buyoklar bilan ishslash murakkab vazifalardan biri xisoblanadi. Fakat ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, ko'rgazmali vositadan va metodik priyomlardan samarali xamda urinli foydalanish natijasidagina rangshunoslik buyicha zarur bilim, malaka va kunikmalarni uzlashtirishga erishish mumkin.

Ma'lumki, predmetlarning shakli va materiali naturadagi yorug-soya va rang tuslari orqali idrok etiladi. Xar kanday predmet turli xil egriliklar yoki tekisliklar – yuzalar bilan chegaralangan bo'lib, turli xildagi yorug'ik sharoitida bo'ladilar, ya'ni yorug'ik nurlari predmetlarga turlicha tushib, ularning yuzalarini turlicha yorug'antiradilar. Ba'zi yuzalar ko'proq, boshqalari kamrok yorug'ik oladilar. Predmetlar yuzasining yorug'anish darajasi, avvalo, yorug'ik manbaigacha bo'lган masofaga bog'liq bo'ladi. Yorug'ik manbai yuzadan kanchalik uzoqlikda bo'lsa, predmet shuncha kuchsiz yorug'anadi va aksincha, yorug'ik manbai predmetga kancha yakindan joylashsa, u shunchalik kuchli yorug'anadi. Shuningdek, predmet yuzasining yorug'ik darajasi predmetdan kuzatuvchigacha bo'lган masofaga xam bog'liq bo'ladi, ya'ni narsalar tusi kishi ko'ziga yakinlashgan sari ochrok, uzoqlashgan sari esa to'qrok ko'rindi.

Yuzalarning yorug'anish darajasi shu yuzaga tushayotgan yorug'ik nurlarining tushish burchagiga xam bog'liq bo'ladi. Eng kuchli yorug'ikni yorug'ik

manbaiga tik qaragan yuza oldi.Tushayotgan yorug'ik nurlarining burchagi kanchalik katta bo'lsa, narsalar yuzasiga tushayotgan nurlar shuncha kam bo'ladi.

Xar kanday predmetning xajmi, shakli, materiali va ularning fazoda joylashuvini biz fakat yorug-soya jixatdagina emas, rang jixatdan xam idrok etamiz. Hajm va materialni idrok etish predmetlar yuzasida joylashgan yorug-soya va ranglarga bog'liq bo'ladi. Birinchi va ikkinchi plandagi predmetlarning ranglari bir-biridan o'zto'yinganliklari, yorug'anganliklari bilan keskin farq qiladilar. Shuning uchun xam biz narsalar shaklining tabiiy emas, perspektiv ko'rinishini tasvirlaganimizdek, predmetlar ranglarini xam tabiiy emas, perspektivada ko'rinyotgandek shartli tasvirlashimiz kerak bo'ladi.

Kuzatuvchiga nisbatan turli xil uzoqlikda joylashgan va bir xil yashil ranga ega bo'lgan daraxtlar turli tusda, urmon esa uzoqdan deyarli kul rang ko'rindi. Chunki kuzatuvchidan ob'ektgacha bo'lgan masofadagi xavo katلامи ma'lum zichlikka ega bo'lib, rang nurlarini ma'lum mikdorda ushlab qoladi. Natijada predmetlarning ko'rinyotgan ranglari o'zto'yinganligini yukotadi.Bunday xolni O'.Tansiqboevning «Tog yuli» nomli asarida ko'rish mumkin.

Kuzatuvchi bilan ob'ekt urtasidagi masofaning uzoq-yakinligi natijasida fakat ranglarning tuslarigina emas, balki ularning tonlari xam o'zgaradi.Uzoqda joylashgan narsalar ko'proq xavo rang tusda ko'rindilar. Chunki xavodagi zangori va xavo rang nurlar fazoga tarkab, unga xavo rang tus beradi. Atmosferadagi namlik va chang zarralarining soni va ulchoviga qarab yorug'ikning tarkalish darajasi, xarakteri o'zgaradi. Agar xavo namlik bilan to'yingan bo'lsa, yirik zarrachalar yorug'ikni ko'p tarkatadi va u ko'proq oqish ko'rindi. Aksincha, xavo kanchalik toza va kanchalik zarrachalar mayda bo'lsa, zangori xavo rang nurlar shunchalik ko'p tarkaladi, atmosferada zangori ranglar shunchalik ko'p bo'ladi. Nihoyatda tinik osmonda namlik va chang zarrachalari juda mayda bo'lganidan, atmosferada xavo rang emas, binafsha rangli nur ko'proq tarkaladi.

Predmet kuzatuvchidan uzoqlashgan sari o'zranglarining to'yinganligini yukotadi, natijada ular xavorang yoki zangori tusda ko'rindilar, soyada esa yorug'ashadilar, predmetlardagi rang va yorug'ik farqlari kamayadi, shuningdek, predmet zexlari, uning burtgan joylari, bulaklari o'zanikliklarini yukotadilar.

Ulug rassom Leonardo da Vinci perspektivani uch bulakka bo'lган edi.

1. Chizikli perspektiva
2. Xavo va rang perspektivasi
3. Relef perspektivasi

Chizikli perspektivada narsalar kishi ko'zidan uzoqlasha va yakinlasha borgani sari ularning ulchovlardida, xavo, rang perspektivasida, ranglarida o'zgarishlar yo'zberadi.

Relef perspektivasi deganda esa narsa shakllaridagi aniklik va ularning fazoda uzoqlashuvi natijasida yorug'ik va soya urtasidagi nisbiy o'zgarish tushuniladi.

Yorug'ik manbaining o'zgarishiga qarab utlar, daraxt barglari, er, uylarning ranglari turlicha tusga kiradilar. Mazko'r predmetlar erta (baxorda) tangda xavo rang va zangori tusda bo'lsalar, kunduzi esa ular uzlaridagi xamma bor ranglarni namoyon qiladilar. Kechko'run esa zargaldok tusga kiradilar. Bu xodisalarni u Tansikboevning «Kayrokkum GESi tangi», Z.Inogomovning «Choyga» nomli asarlarida ko'rish mumkin.

Yorug'ik rangini kish paytida kuzatish mumkin. Kishning quyoshli, Erkin kunida kor pushti rang tusda ko'rinsa, soya joyda u xavo rang yoki zangori tusda bo'ladi.

Predmetning rangi ularni o'rabi olgan narsalarning rangi ta'sirida o'zgaradi. Bunday xodisani refleks deb yuritiladi. Predmetlar rangini biz tevarak-atrofdagi narsalarning ranglariga nisbatan idrok etamiz. Agar predmet turgan joydagi fon o'zgartirilsa, usha predmetning rangi xam o'zgargandek tuyuladi: Sariq predmet zangori fonda Sariq yoki qizil fondagiga Qaraganda yanada sargish

tuyuladi, yashil rangdagi predmet qizil fonda Sariq yoki zangori fondagiga qaraganda yorkin va yanada yashil tuyuladi, ilik rangdagi predmet yonida turgan sovuq rangli predmet yanada sovuqrok tusga ega bo'ladi, qizil rangdagi predmet yonidagi kul rang fonda sovuqrok tuyuladi, zangori rang yashil rang bilan yonmayon tursa ilik tuyuladi. Agar predmet rangi sovuq bo'lsa, uning soyasi ilik tuyuladi va aksincha

Manzaradagi biron ta daraxtni tasvirlashda uni fakat birgina yashil buyok bilan buyash noto'g'ridir. Daraxt rangi yorug'ikning ta'sirida, yon atrofdagi narsalarning ta'sirida o'zgaradi. Shuning uchun xam uni o'ziga o'xshatish uchun turli ranglardan foydalanish kerak bo'ladi. Shundagina u xajmli va tulakonli chikadi. Agar daraxtni fakat yorug'ik darajasi bilan farq qiluvchi lokal rang bildan buyalsa, noanik, sun'iy, jonsiz tasvir xolsil bo'ladi. Haqiqiy san'at asarlarini sinchiklab kuzatar ekanmiz, ularda tasvirlangan narsalar va odamlarning ranglari bir-biri bilan uzaro bog'liq ekanligini sezamiz. Shuning uchun xam surat ishonarli ko'rindi. Tasvirda yoki suratda xamma ranglardan ustunlik qiladigan umumi yorug'ik va rang birikmalariga kolorit deyiladi. Agar suratda qizil rang ustunlik qilsa, uni qizil koloritli deb yuritiladi. Umuman suratlar ilik, sovuq yoki oltin kul rang tus koloritida bo'lishlari mumkin.

Kolorit – bu qo'shimcha rang birikmali qonuniyatlariga javob beruvchi buyoklar uyg'unligi emas, u borlikni to'g'ri aks ettirish natijasidir.

Suratlarda kolorit turli predmetlar ranglarining uyg'unligi orqali, yorug'anish bilan birlashgan va yorug'ik ranglarining tevarak-atrofdagi narsalar ranglarining ta'sirida xosil bo'ladi. Osmon predmetlarning soyasiga sovuq tus beradi. Quyosh predmetlarning yorug qismlarini birlashtiradi. Kechki sun'iy yorug'ik manbalari esa asosan predmetlarga umumi sargish-zargaldok rang beradi. Uning nuri ta'sirida zangori va xavo rang ranglar ko'rinnmay qoladi. Sariq, qizil ranglar Erkin, kul rang esa ilik tus oladi. Kechki sun'iy yorug'ikni o'zida aks ettiruvchi suratumumiy zargaldok-sargish koloritga ega bo'ladi. Tevarak-atrofdagi narsalarning aks ta'siri xam naturaning koloritiga ta'sir etadi. Quyosh nuriga

chulgangan fazo o'zining umumiyligi yorug'igi va ko'p rangliligi bilan farqlanadi. Biroq manzarada yoki naturada Quyosh nurlari ranglarining turli-tuman bo'lishiga qaramay, tushuvchi soyalarda va yarim soyalarda osmon, er, tevarak-atrofdagi narsalarning ranglari aks etgan bo'ladi. Shunga muvofik turli rangdagi manzarada xamma predmetlar uchun umumiyligi bo'lgan ikki-uch xil ranglar birlashgan bo'ladi. Kompozistiyada ranglarning bir nechtasi yigilib, chiroyli birikmalarni xosil kilishi ranglar garmoniyasi deb ataladi. Agar ranglar yokimsiz birikmani xosil qilsa ularni disgarmoniya deb yuritiladi.

Rang gruppalarining garmonik birikmalarini ba'zan gamma deb xam yuritiladi. Ba'zan to'yingan ranglar gruppalarining to'yinmagan ranglar bilan kushilishi xam garmonik birikmalarni xosil kilishi mumkin. Biroq ayrim xollarda birgina rasmda to'yingan va to'yinmagan birikmalarning aks etishi disgarmonianing xosil bo'lishiga olib keladi. Rasm chizishda ana shu momentlarga rioya kilgan xolda ish olib borish tasvirning ta'sirchanligini oshirish imkonini beradi.

Kompozistiyada yorug'ik (och-to'qlik) xam undagi obrazlarning ta'sirchanligini oshirishda aloxida axamiyat kasb etadi. Buni axromatik ranglar bilan ishlangan illyustrativ rasmlarda ko'rish mumkin. Kompozistiyada yorug'ikning roli shundan iboratki, bunda ko'rsatilishi lozim bo'lgan obrazlarni tasvirlashda kontrastlik usulidan foydalaniladi, ya'ni asosiy obraz to'q tasvirlansa, uning atrofidagilar och ranglar bilan ishlanadi va aksincha suratdagi asosiy obraz och rang bilan ishlansa, boshqalari esa to'q ranglar bilan tasvirlanadi.

O'quvchilarning rang bilan ishlashga, ranglarning tuslarini farqlay bilishga va ulardan rasmning mazmuniga qarab foydalana olishga urgatib borish kerak. Buyok bilan ishlash jarayonida buyok va rang xaqida ma'lumotlar berish bolalar rasmlari xamda rassomlar asarlarining reprodukstiyalarini taxlil kilish bilan amalga oshiriladi. «Bizning kucha» mavzusida rasm chizdirishda o'qituvchi kuchadagi narsalar ranglarini savollar orqali aniklab bo'lgach, buyok bilan ishlash yuzasidan ko'rsatma beriladi.

Narsa va ob'ektlarning rangi bir tekis va chiroyli chikishi uchun kerakli rangdan ko'proq tayyorlash va ularni tez ishlatishning roli katta. Agar buyok kamrok tayyorlab ishlatiladigan bo'lsa, keyingi buyokni tayyorlaguncha avvalgi surtilgan buyok ko'rib qoladi. Natijada avvalgi surtilgan buyok bilan keyingi surtilgan buyok urtasida ton jixatdan farq bo'ladi. Shuni xisobga olish kerakki, ikkinchi marta xudi usha tusda va tonda buyok tayyorlash ancha kiyin.

Bolalarning rang xaqidagi tushunchalarini mustaxkamlashda ularga tengdoshlarning rang jixatdan muvaffaqiyatli ishlagan rasmlarini ko'rsatish katta yordam beradi. Ko'rsatiladigan ramslarning ranglari xar jixatdan yaxshi ishlangan bo'lishi shart emas.

Bolalar rasmlarida rang jixatdan ruy beradigan xatolarning oldini olish uchun bolalarga o'zrasmlarini buyashga kirishishlaridan avval to'q zangori ranga buyalgan osmon, kop-kora ranga buyalgan daraxt tasvirlangan rasmlarni ko'rsatish xam foydadan xoli emas. Bunday rasmlardagi ranglarning noto'g'ri ishlatilganligini ta'kidlash bilan o'quvchilarda ranglardan urinli foydalanish xaqida tushuncha xosil qilinadi.

2.2. Natyurmort bajarishda amaliy tavsiyalar

Naturadan realistik tasvirlash atrofimizdagi voqealari — hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash — bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvi, materialligi, hajm va nisbatlarni ifodalashm qalamtasvir yoki etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan obyektlar va narsalarni xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.

Realistik tasvirlash savodini dastlabki ta'limga bosqichlarida o'quv natyurmortlarini bajarish orqali o'zlashtirish mumkin. Darhaqiqat savodli tasvirlash asoslarini o'rganishda natyurmort qimmatli tasviriy obyekt bo'lib hisoblanadi. N. Tenning "Natyurmort" asari misol bo'la oladi. Natyurmortni rangtasvirning kamerli musiqasi deb atashadi. Uning mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy, qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlash ishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interer, inson boshi va qomarini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi. Badiiy Akademianing raisi T. Qo'ziyev o'quv jarayonida natyurmortni muhim ekanligini ta'kidlab: "Natyurmort, — shunday zaminki, unda badiiy maktab mustahkam joylashgan bo'lishi kerak", deydi.

Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa o'z navbatida o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddarol so'ngra esa narsa va buyumlaming bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini

to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash.

O'g'uv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Har bir o'quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. Natura qo'yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo'lishi, mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi va ma'lum g'oyani ilgari surishi kerak.

O'quv natyurmortli ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o'quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo'yilma natijali yakunlanadi. O'quv nalyurmortida biroz bo'lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan konstruksiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo'lgani ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo'yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rangbarang bo'lishi natyurmortdagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik tug'diradi.

Natyurmort ufq chizig'iga nisbatan pastda joylashgani ma'qul, chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinish turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yil-sa, stol yo'zining gorizontal tekisligi ko'rinxay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy yechimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Natyurmort tuzish vaqtida narsalarni balandligi, ularning surat tekisligida joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruhi bir

tomonga yig'ilib qolishi noto'g'ri. Yirik buyumlar qisman bo'lsada boshqa buyum bilan biroz to'silgan bo'lishi mumkin. Qo'yilmadagi narsalar shunday joylashishi kerakki, ularni bir qarashda har birini yaqqol ko'rish mumkin bo'lsin.

Natyurmortdagи narsalarning ranglari ma'lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo'lishi kerak.

O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarim-soya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinib turadi. Qoramtil fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etadi. Fonning tuni och va to'q narsalar orasid'a o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q – qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon ham to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qui. Iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontal tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'rnida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.

Natyurmortining kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realistik san'at tabiat bilan bayon etilgan asosiy talablar o'zgarmay qolmoq-da: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv metodik vazifalarning mavjud.

Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmi materialligi rang sifati aniq bajarilishi lozim.

2.3. Ranglarning ta'siri va uni idrok etish

Ranglarning insonga ta'siri murakkab va turli sabablar bilan aniqlanadi. Hamma organizmlar o'simliklar ham, hayvonlar ham ranglardan turlicha ta'sirlanadilar. To'lqinlarning aniqrog'i, turli ranglarning turli uzunlikdagi yorug'lik nurlari organizm yashash faoliyatiga spetsifik ta'sir ko'rsatadi: bir rang nurlari hayot jarayonlarining ancha tez va jadal o'tishiga yordam beradi. boshqa ranglar nurlari bu jarayonlarning o'tishini sekinlatadi. Vainson organizmi ranglarning bunday bevosita ta'siriga uchraydi. Buni yorug'lik nurlarining organizmga fiziologik ta'siri deb atash mumkin, lekin bunga ranglarning insonga ta'siri haqidagi butun masalani to'liqligicha kiritish mumkin emas.

Insonda ong mavjud. Biz nafaqat to'lqinlarning turli uzunlikdagi yorug'lik nuriga duch kelamiz, balki biz ranglarni idrok qilamiz va ularni bizni o'rab turgan obyektiv olam sifatlaridan biri sifatida idrok qilamiz. Ranglar biz uchun o'z-o'zicha emas. u yoki bu buyumlarning xususiyatlari sifatida mavjud. Yashil -o'simlik rangi, moviy rang - osmon rangi. to'q sariq-qizil olov rangi va h.k. Shuning uchun ranglar bizning ongimizda u yoki bu predmetlar. buyumlar. ba'zida butun bir ko'rinish. hodisalar bilan bog'lanadi. Bu bog'lanishlar (assotsiatsiyalar) o"zida jamoa tajribasini ifodalab, ko'p sonli odamlar uchun umumiyl bo'lishi (yashil rangning o'simliklar bilan. moviy rangning yorug' osmon bilan assotsiatsiyalari shunday), u yoki bu insonning xotiralarini ifodalab, individual bo'lishi mumkin. Bu rangning psixologik ta'siri, uning asosida alohida odamning qanday bo'lsa, butun jamoaning ham xuddi shunday o'tmisht tajribasi yotadi. Bizni turli ranglar bilan bog'laydigan o'sha tasavvurlar. obrazlar. fikrlar. hissiyotlar. kayfiyatlarining katta qismi o'zimizning sotsial mansubligimiz bilan belgilanadi. Rangning sotsial funksiyasi rang simvolikasida yaqqol bog'lanadi. Ranglar ko'pincha siyosiy. professional, diniy. maishiy simvollar. ya'ni ramzlar sifatida uchraydi. Ba'zida rangning ramziy ahamiyati uning fiziologik va psixologik ta'siri bilan chambarchas bog'iiq boiadi. Ma'lum bir sotsial jamoa ongida paydo bo'lib va mustahkamlanib. rangning ramziy

ahamiyati, bu rangning jamoa a'zolariga ta'sirini belgilovchi kuchli omil bo'lib qoladi.

Binobarin, ranglarning hissiy ta'siri haqidagi. ranglarning bizning tuyg'ularimizga, kayfiyat va ongimizga ko'rsatadigan ta'siri haqidagi masalani o'rganib. biz inson organizmiga turli uzunlikdagi yorug'lik nurlari va ranglarning psixologik ta'siri, turli xil assotsiatsiyalar ta'siri. ranglarning ramziy ahamiyati bilan ish ko'ramiz. Ko'rinishning bu hamma jihatlari murakkab o'zaro bog'liqlik dadir.

Rangning inson organizmiga ta'siri

Ranglarning inson organizmiga ta'siri haqidagi masalaga o'tamiz. Spektrning turli ranglarini bunday nuqtayi nazardan taqqoslab, ularni o"z ta'siri bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi ikki guruhga ajratish mumkin: uzun to'lqinlar bilan xarakterlanuvchi ranglar - qizil. to'q sariq. sariq organizmning hayotiy faoliyatini to'lqinlantiradi. hayotiy jarayonlarning tez va jadal o'tishiga sabab bo'ladi (faol ranglar).

Qisqa to'lqinlar bilan xarakterlanuvchi ranglar - moviy, ko'k. binafsharang hayotiy jarayonlarni zaiflashtiradi va sekinlashtiradi. faollikni kamaytiradi (passiv ranglar). O'rtacha uzunlikdagi to'lqinlar bilan xarakterlanuvchi yashil rang oraliq holatni egallaydi, ancha toza yashil tuslar, ayniqsa, sovuq yashil ranglar passiv ranglar guruhiga tegishli. Iliq yashil. sarg'ish yashil ranglar neytral hisoblanadi.

Ranglarning faol va passivga ajratilishi bizga ma'lum bo'lgan ranglarning iliq va sovuqqa boiinislari bilan mos tushadi; iliq ranglar organizm hayot faoliyatini kuchaytiradi, sovuq ranglar esa zaiflashtiradi. pasaytiradi.

Ranglarning jo'shqinlantiruvchi va xotirjam qiluvchi ta'sirlarining eng puxta tadqiqotini Leypsig psixologiya institutida Stefanesku-Goang o'tkazgan.

U bir qancha kishilarga juda to'yingan ranglarning katta maydonini ko'rsatdi va bunda maxsus uskunalar yordamida nafas olish va tomir urish tezligi va chuqurligini qayd etdi. Bundan tashqari, tajribalarda ishtirok etgan kishilar ularning kayfiyatiga ko'rsatilgan ranglarning har biri qanday ta'sir ko'rsatganini batafsil tavsiflab berdilar.

Ma'lum bo'ldiki. to'q qizil. qizil, to'q sariq va sariq ranglar nafas olish va tomir urishida har qanday kuchli qo'zg'alishda kuzatiladigan o'zgarishlarni hosil qilgan. Nafas olish tez-tez va chuqurlashadi. buning ustiga nafas chiqarish davomliligi hisobiga nafas olish davomliligi ko'payadi, tomir urishi ko'payadi va kuchayadi. Bunday alomatlar ayniqsa, qizil rang ta'sirida aniq ko'rindi.

Yashil, moviy. ko'k va binafsharanglar teskari ta'sir ko'rsatdilar. Bunda nafas olish sekinlashdi va uncha chuqur emas. nafas chiqarish davomliligi ko'paydi, tomir urishi zaiflashdi va kamaydi. Yashil rang ta'sirida bu hamma alomatlar boshqa ranglar ta'siridagidan kamroq keskinlikda aks etdi.

Sinovdan o'tkazilayotgan kishilarning bergan hisobotlari ikkala guruhdagi ranglar har binning psixologik ta'sirining o'ziga xos xususiyatini ham ko'rsatadi.

Sinovdagilarning ko'rsatmalariga ko'ra, birinchi guruh ranglari jonlantiruvchi ta'sirning shunday tuslarini beradi. Qizil rang faol, ta'sirchan, g'ayritabiiy xarakterga ega bo'lgan juda kuchli hayajonni yuzaga keltiradi. To'q sariq rang ta'siri ostida qizil rangdagiga nisbatan yumshoqroq kuchga ega bo'lgan quvnoq, yoqimli. xushtabiat kayfiyat paydo bo'ladi. Sariq rang tetiklantiruvchi, xursand qiluvchi jonlanish paydo qiladi; uni qizil rang hosil qilgan ta'sirlanishdan farqli o'laroq. ancha jiddiy va faol tusga ega bo'lgan muloyim, nafis rang deb xarakterlash mumkin. To'q qizil rangning jonlantiruvchi ta'siri ancha ahamiyatii: u qandaydir jalb qiluvchi, ulug'vorlik va mahobatlilikka ega. unda ba'zi ichki orom bor.

Ikkinchi guruh ranglari bir-biridan shunday farqlanadi: yashil rang yumshoq. tiniq, taskin beradi. u sovuqroq. jiddiyroq. hatto ba'zida g'amgin tusga ega bo'lgan moviy rangdan yuzaga kelgan taskindan farqli nafisroq erkalovchi. quvnoqroq hamdir.

Ko'k rang ta'sirida bu sovuq va jiddiy tus kuchayadi va tinchlantiruvchi ta'sir ba'zida qiynovchi va ezuvchi ta'sirga aylanib ketadi. Bu qiyash. ezish elementi hammadan ko'proq binafsharang ta'sirida namoyon bo'ladi, buning ustiga unga qandaydir ichki noxotirjamlik. yashirin ta'sirlanish qo'shilib ketadi, xafalik va bezovtalikning o'ziga xos birikuvi yuzaga keladi. Shubhasiz, Stefanesku-Goang tomonidan sinalgan ko'rsatmalarning jamlanmasi bo'lgan ranglar ta'sirining bunday tavsifi subyektiv va shartli.

Qon aylanishiga ranglarning ta's. haqidagi o'xshash ma'lumotlar umuman boshqi usullar yordamida ham olingan. Qizil rangda yuqoh qo'zg'aluvchanlik. harakatning katta tezligi kuzatilishi haqidagi ba'zi tajribaviy ma'lumotlar Inavjud. Bu ma'lumotlar bilan Liondagi Lyumer suratkashlik fabrikasi ishchilar ustidan o'tkazilgan kuzatuvlar ham to'g'ri keladi. Unda ishning ko'p qismi qizil chiroqda bajariladi, lekin ba'zi predmetlarni ishlab chiqarish yashil chiroqdan foydalanishni joiz biladi. ishchilar kun bo'yi qizil chiroqda ishlaganlarida ular qo'shiq aytgani, imo-ishorali harakatlar qilgani. asabiy va jizzaki bo'lib qolganlari kuzatilgan. Yashil chiroq ishlatilganda. ular xotirjam bo'lib. kechgacha kamroq charchaganlar.

Ranglar yordamida tinchlantirish yoki qo'zg'atishga erishish imkoniyatidan meditsinada ruhiy kasallarni davolashda foydalaniladi. Bu ishning birinchilaridan italyan ruhshunosi Ponza bo'lgan. Uning rahbarligidagi ruhshunoslik kasalxonasida bit qancha rangli xonalar qilingan, ularning har birida rha'lum rangdagi deraza oynalari bo'lgan; devorlar ham o'sha rangga bo'yalgan. Qizil xonalarga og'ir ruhiy kayfiyatdagi, demak. ruhan siqilgan, ruhiy tushkunlik holatidagi bemorlar joylashtirilgan. Ko'k va binafsharangdagi xonalarga asabiy. fe'li tez bemorlar joylashtirilgan. Pirovardida davolashning bu usuli ko'plab yirik

ruhshunoslar tomonidan sinalgan va yetarlicha keng amaliy tadbig'ini topgan. Kasalxonalarining notinch bo'limlarida asabiylashgan bemorlar uchun maxsus «ko'k xonalar» yo'lga qo'yildi. Hayotining oxirgi yillarida ruhiy kasallikdan qiyngan rassom M.A.Vrubel rang orqali bunday davolashdan qattiq ta'sirlangan. Uni «ko'k xona»ga joylaganlarida, kuchli asabiylashish holatiga qaramay. juda tez tinchlangan.

Rangning insonga ta'siri qator sabablarning o'zaro ta'siri natijasidir. Buni tushuntirish uchun, eng avvalo, ranglar hammaga bir xil ta'sir ko'rsatadi. degan noto'g'ri tasavvurdan xalos bo'lish kerak.

Rangning mehnat jarayonlariga ta'siri

Qisqa vaqt davom etadigan ishda qizil rang ish qobiliyatini oshiradi, to'q sariq, sariq va yashil rang kunduzgi yorug'lik kabi ta'sir qiladi, ko'k va binafsharang qorong'ilikdan ham yoraon ta'sir ko'rsatib, ish qobiliyatini juda kuchli pasaytiradi.

Uzoq vaqt davom etadigan ishda kunduzgi yorug'likdagidan ham kattaroq ish qobiliyati yashil rang ta'sirida kuzatiladi. Qolgan hamma ranglar kunduzgi yorug'likka nisbatan ish qobiliyatini pasaytiradi, nihoyatda yomon natijalar ko'k va binafsharanglar ta'sirida bo'ladi.

Anchagina dinamogen bo'lgan qizil rang dastlab ish qobiliyatiga tez, lekin qisqa ko'tarilish beradi. Uning ta'sirida yuzaga kelgan kuchli jonlanish tez charchatadi va ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Ko'k va binafsharanglar boshidanoq ish qobiliyatini tushiruvchi ta'sir ko'rsatadi va bunday natija butun tajriba davomida saqlanadi.

Yashil rangning nihoyatda yoqimli ta'siri shundan iboratki. u kuchli bo'lmasa-da. ish qobiliyatiga mustahkam ko'tarinkilik beradi va shu bilan birga kamroq charchatadi.

Rangning uzluksiz ta'siriga doir ta'riflangan tajribalardan tashqari shunday tajribalar o'tkazilganki, ularda bir necha daqiqalik dam olish vaqtida, rangli oynalar sinalayotgan kishi ko'zidan olib qo'yilgan, demak, ishdan dam olib, sinaluvchi rang ta'siridan ham dam olgan.

Uzuq-yuluq ta'sir sharoitida hamma jlonlantiruvchi ranglar ish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bu to"q sariq va sariq ranglarga tegishli. Agar vaqtiga bilan ulardan dam olinsa, ular xuddi yashil rang darajasida ijobiy ta'sir ko'rsata oladi.

Ish qobiliyatini oshirish maqsadida yashil rangdan foydalanish alohida ehtiyyotkorlikni talab qilmaydi. sariq, to'q sariq, ayniqsa, qizil ranglarni ishlatish, faqat agar ishlayotgan kishi ularga uzluksiz qarashga majbur bo'limgan sharoitlardagina joiz.

Ranglarni idrok qilinishi

Ranglar qanday nuqtayi nazar bilan idrok qilinishi va baholanishi mumkin? Rangga qanday «yondashuvlar» joiz?

Bu masala yuzasidan ingliz ruhshunosi E.Bullouning tadqiqoti qiziq ma'lumot beradi. U 35 kishiga (ulardan 30 nafari universitet talabalari) 35 xil turli ranglarni ko"rsatgan. Tajribalar qorong'i xonada o'tkazilgan. Sinalayotgan kishi qora trubka orqali rangli qog'ozga bir ko'zi bilan qaragan. Trubka orqali diametri 14 sm ga teng rangli aylanani ko'rish imkonи bo'lgan. Har bir rang haqida sinalayotgan kishi aytishi kerak bo'lgan: a) unga yoqadimi yoki yo'q va b) nega bu rang unga yoqadi yoki yoqmaydi?

Bunday javoblar ko'p miqdorda olingan (35 sinaluvchi - 35 rang haqida $35 \times 35 = 1225$). Bu material tahlili rangga turli «yondashuvlar» bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Sinalayotganlar turli dalil va asoslardan kelib chiqib, rangga ijobiy yoki salbiy baho beradilar. Boshqacha qilib aytganda, ranglar turli nuqtayi nazardan idrok qilinishi mumkin, turli «rang jihatlari» bo'lishi mumkin.

Bundan kelib chiqib, Bullou rangni idrok qilishning ma'lum «nuqtayi nazarga», rangga ma'lum yondashuvga egaligi bilan xarakterlanadigan to'rt turini aniqladi.

Obyektiv tur. Butun e'tibor rangning asosiy xususiyatlariga jamlanadi: rang tusi, to'yinganlik, yorqinlik. «Ranglar tus tozaligi (sariqliksiz va ko'k tussiz «toza» yashil) to'yinganlik darajasi (kulrang. xira, loyqa aralashmalarsiz), yorqinlik nuqtayi nazaridan baholanadi. Ranglar yoqadi, chunki ular toza, to'yingan, chunki ularda yorug'lik ko'p.

Ranglar yoqmaydi. chunki ular kir. xira, noaniq tussiz, qorong'i va h.k. Rangga yondashuv tanqidiy: rang doimo ba'zi standart (g'oyat toza, g'oyat to'yingan va shunga o'xshash rang bilan) taqqoslanadi va bu standartga yaqinlashish nuqtayi nazaridan baholanadi. Bu turning xarakterli belgilari: 1) salbiy baholarning juda katta soni: ranglar kamdan-kam «yoqadi»; 2) ma'lum rang afzalliklarining yo'qligi: obyektiv tur vakillarining odatda yoqtirgan, afzal ko'rgan ranglari bo'lmaydi.

Fiziologik tur. Rangni idrok qilishda birinchi o'rinda uning insonaa ta'siri va birinchi navbatda fiziologik ta'siri turadi. Ranglar ularning jonlantiruvchi yoki tinchlantiruvchi ta'siri. Ularning iliq yoki sovuq bo'lib tuyulishi nuqtayi nazaridan baholanadi. Rang yoqadi. chunki u jonlantiradi, tinchlantiradi, isitadi, chunki u iliq yoki sovuq; rang yoqmaydi, chunki u g'azablantiradi, ranjitadi, chunki u sovuq. Ayniqsa, salbiy baholilar keskin ta'sirchan xarakterga ega; bir sinaluvchi kishi, haqiqatda, alohida sovuq ko'k rangga qarab titradi. Afzalliklar, oxir oqibat organizmning umumiylari holati bilan belgilanadi. unga bog'liq ravishda jonlantiruvchi yoki tinchlantiruvchi. issiq yoki sovuq ranglarga intilish kuzatiladi. Fiziologik turdagilar uchun xarakteiisi. ularda obyektiv turdagilarga nisbatan ijobjiy baholar soni ko'p: ranglar ko'pincha «yoqadi».

Assotsiativ tur. Rangga munosabat berilgan rang bilan bog'liq bo'lgan assotsiatsiyalar (biror nimani eslatadigan o'zaro bog'lanish) bilan belgilanadi. Rang yoqadi. chunki u bilan yoqimli assotsiatsiyalar bog'liq; yoqmaydi. chunki u

yoqimsiz, og'ir assotsiatsiyalarni chaqiradi. Bu assotsiatsiyalardan ba'zilari ko'proq yoki kamroq «umumiylar» xarakterga ega, demak. ular ko'pchilikka xos (Bullou ularni «obyektiv» assotsiatsiyalar deb ataydi), boshqalari individual, demak. xususiy xarakterdagi xotiralar bilan yuzaga keladi (Bullou tilida «subyektiv»). Bullou tajribalarida quyidagi assotsiatsiya ko'proq umumiylar bo'lib chiqdi: yashil rang o'simlik, tabiat, qishloqdagi hayotni. ko'k va moviy osmon. dengiz. ko'l. daryo. umuman. suvni, to"q sariq va sariq quyosh va oyni eslatadi: qizil. to'q sariq va sariqni olov bilan assotsiatsiyasi bir qancha kamroq uchradi. Individual xarakterdagi assotsiatsiya namunasi sifatida quyidagini keltirish mumkin: bir sinaluvchiga sarg'ish-yashil rang bundan ozgina ilgari ichgan dorisini eslatdi va shuning uchun o'ziga nisbatan keskin salbiy munosabatni yuzaga keltirdi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, rangning salbiy bahosini paydo qiluvchi assotsiatsiyalar aniq ifodalangan individual, xususiy xarakterga ega. Shu bilan birga «subyektiv» assotsiatsiyalarga asoslangan bu baholar keskin ta'sirchan xarakterga ega. Aksincha. «obyektiv» assotsiatsiyalar deyarli doimo ijobjiy bahoni beradi, lekin bu fikr ko'proq sovuq. ehtirossiz. Shunday qilib. berilgan rangdan paydo bo'lgan tasavvurlar qanchalik individual, xususiy xarakterda bo'lsa. shunchalik ular kamroq hayajonlantiradi, har bir alohida shaxsga ta'sir qiladi.

«Xarakter» turi yoki xarakterli tur. Uning asosida quyidagi fikr yotadi. Ko'rinishdan rang u yoki bu xarakter, yoki jo'shqinlikni ifodalaydi: bir rang quvnoq, boshqasi qat'iy, uchinchisi g'amgin va h.k. Birinchi navbatda ahamiyat rang «xarakter»iga qaratiladi va «xarakter» nuqtayi nazaridan rang baholanadi, Rang yoqadi, chunki u tetik. faol yoki e'tiborni jalb etadigan, jiddiy, salmoqli. Rang yoqmaydi. chunki u passiv. siniqqan. zaif yoki yuzaki. mulohazasiz. bachkana. Fiziologik turga xos bo'lgan «xususiy». nozik farqsiz ranglarga berilgan baholar ta'sirchan xarakterga ega. Fiziologik turda odatda shunday fikrlar: «Bu rang menga yoqadi. sababi u meni jonlantiradi. tetiklashtiradi», xarakterlida: «Bu rang menga yoqadi. sababi u quvnoq, tetik, jo'shqin». Xarakterli turga ba'zi ranglarning qandaydir abstrakt afzalliklari xos emas. Aksincha, bu yerda ranglarga

mana bunday munosabat mavjud: «Hamma ranglar go'zal boiishi mumkin, har bin o'zicha. hatto yoqimsiz xarakterdagi rang o'zining o'ziga xos ifodaliligi sababli yoqishi mumkin».

Bu to'rt tur bilan. albatta, rangga bo'lgan turli-tuman «yondashuvlar» ado bo'lmaydi. Eng muhim masala oydinlashmay qoldi: nega bir holda idrok etishning bir turi, boshqa holda boshqa turi o'rinni olgan? Bullouning fikricha, har bir kishi o'z umumiy fizik konstitutsiyasiga bog'liq holda bu tuiiarning biriga tegishli. Ammo uning ish ma'lumotlari buning unchalik to'g'ri emasligini ko'rsatyapti. Rangni idrok qilish turi birinchi galda quyidagilarga bog'iq:

Insonning sotsial mansubligidan. Bullou tajribalari fiziologik turning juda ko'p namoyondalarini berdi va uning o'zi buni sinaluvchilar orasidagilarning ko'pchiligi bu turning haqiqiy namoyondalari kontingentini tashkil etuvchi talabatabiatshunoslar ekanligi bilan tushuntiradi. Muallif bunda ranglarning idrok qilinish turiga ma'lumot va mutaxassislikning ta'siri namunasini ko'radi.

Rang idrok qilinayotgan sharoitdan. Bir kishining o'zi bino fasadi. ko'ylik. kitob muqovasi va boshqalar ranglariga turlicha yondashadi. Bu jihatdan rangning o'zicha. biror predmet bilan bog'lanmay berilgan tajriba sharoitlari. shubhasiz, notabiiy hisoblanadi, Bullouning o'zi buni tan oladi va bunday maxsus sharoitlar ta'sirida o'z tajribalari Fiziologik haddan ortiq va xarakterli tur namoyondalarining juda kam miqdorini ko'rsatgan deb hisoblaydi.

2.4. Mavzusiga oid zamonaviy dars ishlanmasi

Sinf 5. Mavzu: Natyumort rangtasvir kartinalarining bir qismi sifatida

Topshiriq: Tabiat manzarasi fonida natyurmort ishslash

Maqsad:

Ta'limiy: – o'quvchilarning rasm chizish va mo'yqalam bilan ishslash malakalarini o'stirish. Natyurmortchi rassomlar va ularning asarlari bilan tanishtirish. Natyurmort janridagi asarlarni o'qib olishga o'rgatish.

Tarbiyaviy: - o'quvchilarda borliqqa bo'lgan estetik munosabatlarni shakllantirish, ularda estetik va badiiy didni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: - natyurmort janri bo'yicha o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalar hosil qilish.

DTS talablari: Tasviriy san'at asarlarining ifodalilik vositalarini bilish va ularni amalda qo'llay olish.

Dars tipi: Yangi bilim berish (Ijodiy ish)

Dars turi: Noan'anaviy. Aralash metodlar

Jihozlar: A. Plastov «Yoz», I. Grabar «Yig'ishtirililmagan stol», A. Gerasimov «Yomg'irdan so'ng», O. Bakirov «Bodom guli», «Lolalar», M. Umar «Lolalar». Ch.Ahmarov “Rahima”, Ye.Romanova “Daladagi uy oynasidan”.

O'qituvchi va o'quvchilar tomonidan ishlangan natyurmortlar, kompyuter kodoskop. slaydlar

Material: Oq qog'oz, qalam, guash, akvarel, mo'yqalamlar.

Metodlar: «Aqliy hujum», «Zanjir mashqi», «Suhbat», «Musobaqa», «Test», «Boshqotirma».

Tasviriy san'at atamalari: Kompanovka, kolorit, hajm, nisbat, fazo, yorug'- soya, kartina, faktura va h.k

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: O'quvchilarning darsga tayyorligini va sinf xonasining gigiyenik holatini nazorat qilish.

Navbatchi: Bizning 5-«D» sinfimizda 27 nafar o'quvchi bo'lib, ularning barchasi bugungi tasviriy san'at darsiga tayyor.

Bizning shior: A'lo o'qish

Qatorlarga nom beriladi (o'quvchilar o'zлari tanlashadi), qator sardori tayinlanadi.

Masalan: 1-qatorga – «Tasviriy san'at»

2-qatorga – «Natyurmort»

3-qatorga – «Kompozitsiya»

Baholash mezoni e'lon qilinadi:

O'tilgan dars bo'yicha:

1. Nazariy bilim «Zanjir mashqi» - 5 ball

2. Grafik usuldagи natyurmort tahlili – 5 ball

Yangi mavzu bo'yicha

3. Reproduksiyalar tahlili, savol-javob – 5 ball

4. Mavzu matnidagi bajarilgan mustaqil ish – 5 ball

5. Mustahkamlash. Test. – 5 ball

Kirish (Aqliy hujum)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar sizlar bir necha yillardan buyon O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi to'g'risida bilimlar bilan tanishib kelyapsizlar. Xalqimiz salkam 24 yil ichida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Qani aytinglarchi bolalar.

Savol: 2009-yil qanday yil deb nomlandi?

Javob: 2009-yil - «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb nomlandi.

Savol: 2008-yil qanday yil deb nomlandi ?

Javob: 2008-yil «Yoshlar yili» deb nomlandi.

Savol: Prezidentimiz I.Karimovning «Yoshlar yili» Davlat dasturi to'g'risida» gi PQ-805-sonli qarori qachon e'lon qilingan?

Javob: 2008-yil 29-fevral kuni Prezidentimiz I.Karimovning «Yoshlar yili» Davlat dasturi to'g'risida» gi PQ-805-sonli qarori e'lon qilindi.

Savol: Mamlakatimizdagi yoshlarning, siz o'quvchilarning ta'lim olishlaringiz uchun yetarli darajada g'amxo'rliklar ko'rsatilmoqda. Bularni nimalarda ko'rayapmiz.



Javob: - Biz uchun muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan maktabimiz yangi ta'mirdan chiqarildi.

- Sinf xonalari uchun yangi mebellar, partalar berildi.
- O'qiyotgan fanlarimiz uchun kerakli jihozlar berildi va hokazo

O'qituvchi: Barakalla, bolalar rahmat.

Savol: Bolalar, aytinglarchi, ekranda (kodoskop, kompyuter) ko'rib tunganingiz (yoki rasmda) qaysi rassom?



Javob: Bu rassom O'zbekiston Xalq rassomi Obidjon Bakirov.

O'qituvchi: Barakalla bolalar, haqiqatda ham 2008-yil avgust oyida Andijonlik rangtasvir san'ati ustasi, iste'dodli rassom Obidjon Bakirov O'zbekiston Xalq rassomligiga sazovor bo'lди.

Savol: O'zbekistonlik hozirgi kunda ijod qilayotgan rassomlarni ham bilasizmi?

Javob: Salpinkedo Yans, B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Mirzayev Burmakin, Taldikin, A. Mamatova, O. Qozoqov, Akmal Nur, T. Qo'ziyev.

Savol: Andijonlik rassomlarni-chi?

N. Holiqov, U. Boltaboyev, M. Kaziyev, Sh. Teshaboyev, R.O'rozov, M. Umar (Har bir qatorga rag'bat kartochkalari beriladi).

O'tilgan dasr bo'yicha.

O'qituvchi: Qadrli o'quvchilar, biz bu chorak davomida «Natyurmort» janri haqida bilimlar olayapmiz. Hozir «Zanjir mashqi» orqali sizlarning nazariy bilimlaringizni sinaymiz. Marhamat.

1. «Zanjir mashqi»

1-qator. 1. Tasviriy san'at – tasvirlash, ya'ni rasm, surat, haykal ishlash ma'nosini bildiradi.

2. Tasiriy san'at 3 turga bo'linadi. Grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik.

3. Oddiy qora qalam, rangli qalamlar, sangina, ko'mir, tush, oq-qora bo'yoqda ishlangan tasviriy san'at asarlari grafika san'ati deyiladi.

4. Bo'yoqlar va rangli ish qurollari bilan ishlangan tavsiriy san'at asarlari rangtasvir deb ataladi.

5. Tasviriy san'at janrlari: Peyzaj janri, natyurmort janri.

6. Portret janri, turmush janri.

7. Animal janri, dengiz janri.

8. Tarixiy janri

9. Jang manzaralarini tasvirlovchi janr.

10. Afsonaviy janr.

2-qator. 1. Natyurmort so'zi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, jonsiz tabiat yoki o'lik tabiat ma'nosini bildiradi.

2. Natyurmortda gullar, mevalar, qushlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ayrim mehnat qurollari, to'kin dasturxon to'p holda tasvirlanadi.
 3. Natyurmortlar mustaqil ravishda va janrli suratlarda yoki portretlarda yordamchi tasvir sifatida ifodalanishi mumkin.
 4. Mavzuli suratlarda natyurmort muhim ahamiyat kasb etsa-da, lekin asosiy o'rinni yegallamaydi. Asarda rassom unga ma'lum o'rinni ajratadi, xolos.
 5. Natyurmort rangtasvir asarlarining mustaqil janri sifatida keng tarqalgan.
 6. Natyurmortchi rassomlar: Z. Inog'omov, R. Ahmedov, Yu.Yelizarov.
 7. Z. Kovalevskaya, L. Salimjonova, M. To'xtayev
 8. I. Grabar, A. Volkov, V. Favorsiy, D. Mitroxin
 9. V. Kaydalov, Q. Basharov, Y. Burmakin
- 3-qator**
- 1. Kompozitsiya** so'zi «Komposito» so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirishni anglatadi.
 - 2. Kompanovka** – chizilishi lozim bo'lgan naturani, manzarani va boshqalarini qog'ozga to'g'ri chiroyligi joylashtirish.
 - 3. Qalamchizma** – tezlik bilan dastlabki tassurotlarga asoslanib ishlanadigan rasm.
 - 4. Ranglavha** – tezlik bilan, dastlabki taassurotlarga asoslanib bajariladigan bo'yoq bilan ishlanadigan tasvir.
 - 5. Shu'la (blik)** – predmetning yorug' qismidagi eng ochiq, yiltirab turgan joyi.
 - 6. Soya** – predmetning buyumning yoki naturaning o'zidagi soya ko'rinishi.

7. Refleks – yorug’lik yoki rang shulasining biror narsaga, atrofidagi narsalardan yog’dulanib tushishi va akslanishi.

8. Tushuvchi soya – predmetdan fonga yoki yerga, birorta materialga tushayotgan soya.

9. Fon – chizilayotgan, tasvirlanayotgan o’quv mashq ishi uchun qo’yilgan natyurmortning orqa tarafı (rag’bat kartochkalar beriladi)

2. O’tilgan dars mavzusi «Grafik usulda natyurmort ishlash» bo’yicha o’quvchilar bajargan ishlari tahlil qilinadi va ballar qo’yiladi. (rag’bat kartochkalar beriladi).


Yangi mavzu: «Natyurmort – rangtasvir» kartinalarining bir qismi sifatida.

Topshiriq: «Tabiat manzarasi fonida natyurmort» ishlash. Unda natyurmortning o’rni. «Bog’larda bahor» fonida «Lagandagi mevalar», «Gullar», «Lolalar» «Sabzavotlar» dan birontasini yaratish. (suhbat metodi, savol-javob, reproduksiyalar tahlili).

O’qituvchi:

O’quvchilar, biz sizlar bilan 4 ta dars davomida natyurmortning mustaqil janri sifatida ifodalanishini tushundik. Bu borada kerakli bilim, ko’nikma, malakalarga ega bo’ldinglar.

Natyurmortlar janri suratlar yoki portretlarda yordamchi tasvir sifatida ifodalanishi mumkin. A. Gerasimovning «Yomg’irdan so’ng» manzara asari, A. Plastovning «Yoz» syujetli kartinasasi, Ch. Ahmarovning «Rahima» portreti slaydlari tahlil qilinadi. (har bir qatordan




o'quvchi chiqadi).


A. Gerasimov "Yomg'irdan so'ng"

Ch.Ahmarov "Rahima"

Yuqoridagi suratlarda natyurmort muhim ahamiyat kasb etsa-da, lekin asosiy o'rinni egallamaydi. Asarda rassom unga ma'lum o'rinni ajratadi, xolos. Bunda asarlarda buyumlar asarning umumiy kompozitsiyasi asosida joylashtiriladi, ularning ranglari esa suratning asosiy koloritiga bog'liq holda ishlanadi. Bunday suratlar kartina deb ataladi. Kartina tasviriy san'at asaridir. Kartinada makon, joy, kenglik, havo, manzara, ko'p odamlar ta'sirli tasvilanadi. Bu borada rassom Ro'zi Choriyevning yon daftaridan olingen shaxsiy fikrini kelitirsh mumkin.



«Kartina menimcha bu simfoniya yoki bo'lmasa avji bahorda qiyg'oz gullagan olma daraxtini ko'z oldingizga keltiring. Uning gullari, yaproqlari, novdalari, po'stloqlari bilinar-bilinmas bo'lsa-da, bir-birlariga o'xshamaydi. Hidlari ham bo'lakcha. Ularni bir tup daraxt o'zida mujassam etgan. Kartinada ham shunday: obrazlar, ranglar, yorug'lik va soyalar har xil, turli-tuman bo'lishi mumkin, ammo ularni biror bir g'oya ushlab turadi bu esa rassom maqsadida aks etadi». (R.Choriyevning «Qizil atirgular» kartinasini tahlil qilinadi).



R.Choriyev "Qizil atirgullar"

Natyurmortga qo'yilgan buyumlarni geometrik asarlarini asoslab olgan holda har bir buyumning geometrik asosini aniq ko'rsatishga, ularning og'irligini tasvirlashga harakat qilishi lozim. Bu borada fransuz rassomi Pol Sezann o'z xatlaridan birida «Sen tabiatda silindr, shar va konusni ko'rishing kerak» degan fikrni bayon qilgan. (Pol Sezanning «Natyurmort» asari tahlil qilinadi).

Ba'zan natyurmortlar asar markazini ham tashkil etish mumkin. I.Grabar «Yig'ishtirilmagan stol», Ye. Romanova «Daladagi uy oynasidan», O.Bakirov “Lolalar” slaydlari namoyish qilinadi, tahlil qilinadi. (O'quvchilarga rag'bat kartochkalari beriladi).



Ye.Romanova

“Daladagi uy oynasidan”



O.Bakirov

“Lolalar”

Doskaga produktiv mahsulotlar rasmlari ilib qo'yiladi. «Bahor manzarasi, ko'za, lolalar, gullar, mevalar, tarelka». Deraza tokchalariga tarelkada limon, apelsin mevalari qo'yiladi.



Tabaqlashtirilgan ta'lim metodining ikkinchi turi «Darajali tabaqlashtirishning» **guruhli ta'lim** metodi qo'llaniladi.

O'quvchilar idroki va qobiliyatiga qarab, qiziqishiga qarab tabaqlashadi, lekin qatorlaridan ayrılmaydi.

1-variant. Dasturning minimum darajasi. Doskadagi produktiv mahsulotlardan foydalilaniladi.

2-variant. Dasturning o'rtacha darajasi. Deraza tokchalariga qo'yilgan «Likopdag'i mevalar», «Guldondagi lolalar» dan foydalilaniladi.

3-variant. Dasturning yuqori darajasi. Produktiv mahsulotlardan, natyurmort qo'yilmasidan va ijodiy jarayondan foydalaniladi.

O'quvchilarga chizish bosqichlari doskada chizib ko'rsatiladi va o'chirib tashlanadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari.

O'quvchilar mustaqil ravishda o'zlari tanlagan varianti bo'yicha topshiriqni bajara boshlaydilar. Ularning ishlari kuzatilib turiladi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yordam ko'rsatiladi.

«Bahor» musiqasi yangrab turadi.

Bu darsda mavzu bo'yicha qalamli eskiz bajariladi.

Dars yakunida o'quvchilar ishlari qatorma-qator namoyish qilinib tahlil qilinadi va rag'bat kartochkalari beriladi.

Mustahkamlash. Har bir qator sardori o'qituvchi stolidan 1 tadan test savollari kartochkasini oladi va qatori bilan javob topshiradi. (rag'bat kartochkalari beriladi).

1. Test.

Perspektiva so'zining ma'nosini toping.

- A. Tasvirlash B. Qisqarish S. Yasash

2. Test.

Maishiy janrda natyurmortning ishtiroki «Choyga» «Choyxonachi» asarlarini qaysi rassom yaratgan?

- A. I.Mashkov B. R.Ahmedov S. Z.Inog'omov

3. Test

Natyurmort qo'yilmasi orqa tarafi qanday nomlanadi?

A. Refleks

B. Tus

S. Fon

(rag'bar kartochkalari beriladi)

Har bir qator rag'bat kartochkalari sanab chiqiladi. Qaysi qator eng ko'p to'plagan bo'lsa, o'sha qatorga «iqtidorli o'quvchilar qatori» nominatsiyasi beriladi.

O'quvchilar dars davomidagi 5 ta topshiriqni «5» balldan bajarib, «25» ball to'plagan bo'lsa, o'quvchiga «5» ball qo'yiladi va ularga «Eng faol, ijodkor o'quvchi» nominatsiyasi beriladi.

Uyga vazifa: «Tabiat manzarasi fonida natyurmort ishlash» xomaki rasmini chizib tugallash va bo'yashga tayyorlab kelish. Rassomlarning natyurmort asarlari reprodukisyalaridan yig'ish va ularni o'rganish, albomlarga yopishtirish.

Xayr o'quvchilar! Yana ko'rishguncha salomat bo'ling!

Dars yakunlanadi.

Xulosa

Natyurmort mavzusi yordamida yoshlarda estetik xususiyatlarni shakllantirish.

Natyurmort tasvirlashda atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi tuzadi, ongli ravishda o'z tafakkuri doirasida yaratadi.

O'quv natyurmortining Kompozitsiyasi bir tomondan o'rganish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan ta'limning didaktik prinstiplariga bo'ysungan holda estetik talablarga ham to'liq javob berishi shart.

Natyurmort Kompozitsiyasi uzoq va puxta o'ylab tuziladi. Kompozitsiyaga ko'p narsa kiritilmasada, buyumlar rangi, shakli turli xil bo'lishiga ko'p e'tibor ajratiladi. Ayniqsa, rangtasvirda silliq sirtli yaltiroq idishni, jilvasiz sirtli buyum bilan yonma-yon qo'yilishi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Shu tufayli natyurmort, ayniqsa rangtasvirda jiddiy Kompozitsiya tuzilishini talab qiladi.

O'quv natyurmortidan ijodiy natyurmort tubdan farq qiladi, chunki u hayotga juda yaqin bo'ladi, shuningdek ko'p ma'noni anglatadi. Bu borada biz ajoyib namuna haqida so'z yuritamiz. G'afur Abdurahmonov tomonidan bunyod qilingan "Qumg'onli natyurmort" Kompozitsiyasi fikrimiz dalili bo'ladi. Yorug'milliy so'zana fonida qo'yilgan qumg'on, qovun-tarvuzlar, tarelkada olma, anorlarning bir tekislikda yotishi Kompozitsiyada badiiy ifoda topyapti. Mehmono'st o'zbek dasturxonidagi to'kin-sochinlik xalqning samimiylar tarzda saxiyligidan guvohlik beryapti.

Rangtasvir mashg'ulotlari qalamtasvirga nisbatan ancha murakkab kechadi. Rangtasvir Kompozitsiyasi o'quvchini ham, tasvirlovchi oldiga ancha mas'uliyat qo'yib ishni kam-ko'stsiz nihoyasiga etkazishni talab qiladi. Shuning uchun ham rangtasvir borasida aniq darajada tayyorlov saboqlarini o'zlashtirish zaruriyatini tug'iladi. Ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, rangshunoslik sabog'i, ikkinchidan, natyurmort uchun mos keladigan buyum, jihozlarni tanlay olish, uchinchidan bo'yoqlar tayyorlash palitrasini o'rganish.

Aslida natyurmort Kompozitsiyasini tuzish barcha jonsiz buyumlar mos keladi, lekin ular qaerda, qanday qo'yilishi muammodir. Ular mevalar, gullar, oshxona buyumlari, uy jihozlari, mehnat qurollari, musiqa asboblari, o'quv predmetlari, poliz ekinlari va qator kiyimlardan ham tuzilishi mumkin. Shu bois ham ularni o'z o'rnida tanlay olish eng muhim vazifa hisoblanadi. Bu erda ularning ishga yaroqli, yaroqsiz ekanligi muhim emas. Ular singan, pachoq, o'z rangini yo'qotgan, iste'molga yaroqsiz ham bo'lishi mumkin. Misol tariqasida singan stakan yoki piyola, ushatilgan non bo'lsa, albatta e'tibor uning singan yoki ushatilganligiga qaratiladi.

Yuqorida palitra so'zini ishlatdik. Palitra – bu bo'yoqlar qo'yiladigan taxta bo'lib, u yog'och yoki plastmassadan ham bo'lishi mumkin. Uning o'rtasida teshik bo'lib, undan rassom ushslash uchun foydalilanildi.

Rassom yoki o'quvchi bu asbobdan unumli foydalana olishi uchun yuqorida qayd qilingan rangshunoslik sabog'idan xabardor bo'lishi shart. Qoida bo'yicha bo'yoqlar palitra chetiga qo'yib chiqilib, ichkari qismida kerakli bo'yoqlarni qo'shib, yangi ranglar ralashtirib topiladi va buyumning zarur deb tan olingan ob'ektiga qo'yiladi.

Eng muhimi bo'yoqlar qorishmasidan nisbatlarga amal qilinadi. 2-3 bo'yoqdan oz-oz qo'shib o'zingizga kerak rang topiladi. Yana buning uchun qaysi bo'yoq bilan qaysini aralashtirishni bilish eng muhim talabdir. Iliq va sovuq ranglar gammasini o'rgana turib, bir qator ranglar majmuasi bilan tanisha boramiz. Bu borada bizga naturadagi buyumlar rangi ko'maklashib boradi.

Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilariga moybo'yoqda ishslash tavsiya qilinmaydi. Shu tufayli ular suvbo'yoqda ishslashadi, chunki qog'oz oq, shu sababli ehtiyyotlik bilan ob'ektdan oq joylarga bo'yoqni tekizmay tasvirlash zarur. Bu ish texnikasida o'ta yupqa va ho'l tarzda yoziladi. Bunday holatlarda bo'yoqlar juda tez bir-biri bilan qo'shilib ketadi. Ish ustida uzoq bir joyda to'xtab qolinmay

ob'ektdan ob'ektga ko'chib turiladi. Natijada dastlabki ish qurib turadi. O'sha joy qurigach navbatdagi bo'yoq qatlami qo'yiladi. Bu holatlar 3-4 marta takrorlanmasligi mumkin. Bunday texnikalar ho'l va quruq yozish deb yuritiladi. Quruq yozish usulidagi afzallik ostki qatlamdagi bo'yoq ustki qatlam ostidan ko'rinish turadi, go'yo akvariumda baliqlar, dengiz osti hayvoni va o'tlar kabilar misol bo'ladi. Ho'l yozish usuli ko'p paytlarda bir rang ikkinchi rangga singib ketgan holatlarda ko'zga tashlanib, manzarada, portret, mevalarni yozgan holatlarda ishlataladi. Bu tarkibdagi ish usullarida ishlar o'z rangini yo'qotadi, sifatni saqlab qolmaydi. Bu topshiriqlarni bajarish uchun eng asosiysi shakl hajmini etkazishdan iborat. Haqiqatda ham rangtasvir o'quvchilarga faqat real borliqni idrok qilishga ko'maklashib qolmay, balki borliqni tushunish, tan olish, shuningdek atrof-muhitdagi go'zallikni sezish va uning sehrli ta'sirini qabul qilishni ham o'rgatadi. Boshqacha qilib aytganda, rangtasvir estetik tarbiyaning eng muhim vositasidir.

Shu tufayli tasviri san'at bo'yicha o'quv dasturlarida aniq tarzda tasviri san'at asarlarini tahlili va ularni idrok qilish mashg'ulotlari kiritilgan. Shu sabali rangtasvir pedagogikada maktabda tarbiyaning muhim omili sifatida qabul qilingan. Qo'shimcha tarzda rangtasvir nafaqat o'quvchini, balki barchani rangni sezishda ko'nikma hosil qilishi kuzatiladi. Misol qilib bunga engil sanoat xodimiga gazlamada rang tanlash, quruvchiga devor pardozlashni o'rgatib qolmay, xalq xo'jaligining barcha sohalarida ham rang muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, maktabda tasviri san'atdan dars beruvchilar rangshunoslik asoslarini yaxshi o'zlashtirishlari, bo'yoqlar tarkibi va qorishmasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi shart.

Jamiyatning taraqqiyoti mamlakatimizda fanni, texnikani yuksalishga olib kelyapti. Shu tufayli zamonaviy o'qituvchi zamon talabiga javob beradigan bilim va malakalar bilan qurollanish eng muhim talabdir.

O'qituvchi ish faoliyati davomida o'z o'quvchilarini o'rgata turib, umumiy gaplar bilan chegaralanib qolmay, balki ularga tasviri san'atning yangi-yangi qonunlarini ochib berishi va har bir mashg'ulotga ilmiy yondashishi zarur. O'z

fanini mukammal egallagan o'qituvchi tabiatda rang va uning qonunlari haqida o'z o'quvchisiga to'liq ma'lumot berish va o'quvchilarning ish jarayonini namoyish qilish, zarur o'rnlarda nazariy va amaliy yordam ko'rsatishga majburdir.

Ranglar muammozi bilan juda ko'p olimlar shug'ullangan. I.Nyuton, I.Gyote kabi olimlar rang va ular hosilasi, ranglarni inson organizmiga, ruhiyatiga ta'siri kabi muammolar ularning diqqat markazida bo'lgan. Bu borada yangi rangshunoslikning fizik xususiyatlarini I.Nyuton, odam organizmiga ruhiy ta'sirini I.Gyote ilmiy asoslab bergen bo'lsa, rangshunoslik nazariyachi va havo perspektivasidagi o'zgarishlarni ilmiy ravishda aniqlab berdilar. Ularning ilmiy tadqiqot ishlari fanga ranglar doirasi, rangshunoslik nazariyasi, iliq va sovuq ranglar deb nomlanib fanga kirib keldi. Hozirgi paytda ranglar muammozin o'rganish sohasida yana bir qator yangi iboralar – rang tusi, to'yinganlik, yaltiroqlik so'zlari ham qo'llaniladi.

Aslida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosatli tarbiyalash pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir. O'qitishning eng dolzarb muammolaridan biri o'quvchilarda nafosat tarbiyasini shakllantirishdan iborat. Bu uchun tasviriy san'at mashg'ulotlarining suhbat turi, ya'ni san'at asarlarini idrok etish nazarda tutiladi. Bu mashg'ulotlarda rassomlar, ularning asarlari, asarning Kompozitsiyasi, ilgari surilgan g'oyalar bilan yaqindan tanishtirib turib, har bir kartinadan zavq oladilar. Asardagi nihoyat go'zal va betakror chiroydan o'zlariga eng zarurlarini ehtiyoj sifatida idrok etadilar. Bu hususiyatlar nafosatli tarbiyaning eng sodda shaklidir. Lekin bu bilan chegaralanmay, o'quvchilarning qiziqishlarini oshira turib:

- San'atning mohiyatini bolalar ongiga singdirish;
- Mashhur rassomlarning hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o'tkazish;
- Bir oz bo'lsada, bolalar erishgan yutuqlarni qayd qilish va rag'batlantirish, ularning ibratomuz ishlarini sinfdagi barcha o'quvchilarga namoyish qilish;
- Ular uchun qiziqarli bo'lган san'at asarlari haqida suhbat va munozaralar o'tkazish;
- O'quvchilarning eng yaxshi ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish;

- Har bir mashg'ulotda bolalarga yangi bilim, tushuncha va malakalar berish;
- Tasviriy san'at darslarida viktorina, krossvord tashkil etish;
- Bolalarning ijodini yanada kengaytirish uchun ularga kinofilm qo'yib berish, ertak, hikoya asosida rasmlar chizdirish;
- Darsda muammoli vaziyatlar hosil qilish;
- O'quvchilarni ko'rgazma va muzeylarga olib borish kabilar nazarda tutilib, yuqoridagi shartlar bolani nafosatli tarbiyalash vazifalarini amalga oshiradi. Alovida chizdirish uchun estetik ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni chizishni tavsiya qilish yaxshi natija beradi.

Masalan, gullar, qovun-tarvuz, anor-olma, nok, obi non, sopol lagan, guldon, chinni choynak, piyola kabi buyumlar va ulardan tuzilgan natyurmortlar shular sirasiga kiradi. Ularning har birida o'zgacha shakl, o'zgacha rang, o'zgacha chiroy bo'lib yagona nafosat ila bolalar ruhiyatiga singadi, tarkib topadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, tasviriy san'at darslarining o'ziga xos vazifalari: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish, estetik va badiiy didini o'stirish, bolalarning badiiy fikr doirasini badiiy qobiliyat va fantaziyasini rivojlantirishlarni nazardan qochirmay bir qatorda tasviriy va me'morchilik san'at namunalarini tushungan, ularga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularni qadrlash va sevishga o'rgatish kabi maqsadli muammolar o'z echimini topadi.

Rangtasvir umumo'rta ta'lrim maktabi uchun tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Maktabda rangtasvir asoslarini o'rgatish o'quvchilarni didli, dunyoqarash, tafakkur kabi xususiyatlarni idrok etishiga ko'maklashadi.Ularni qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar rangtasvir vositalari yordamida moddiy dunyo go'zalligini his eta oladigan, san'at asarlarini o'qib tahlil qila oladigan komil insonning eng yaxshi sifatlarini shakllantiradi.Qayd qilingan sifatlarni shakllantirishda esa tasviriy san'at o'qituvchilari oldida anchagina mas'uliyatli vazifalar yotadi. Ya'ni oliygohda egallagan bilimlarini yanada kengaytirib, o'quvchilarga bilim berish jarayonida

qo'llay olishni talab etadi. Ular o'z o'quvchilariga faqat amaliy tarzda bilim berish bilan chegaralanmay, balki ular bilimini nazariy jihatdan boyitishga, tanlov, badiiy ko'rgazmalar tashkil etish kabilar ham jarayonni mazmunli tashkil etilishiga zamin yaratish nazarda tutilgan.

Tasviriy san'atga xos badiiy vositalardan o'rinli foydalanish, usta mohir rassomlar bajargan ishlarni atroflicha tahlil qilish, ular ishlariga taqlid qilib, ko'chirma nusxalar bajarish ham, o'quvchilar badiiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Darsdan tashqari paytlarda ularni ko'rgazmalarga olib borish, usta rassomlar ustaxonalariga olib borib ish jarayonlari bilan tanishtirish ham o'quvchilar hayotida sezilarli darajada ijobiy yordam ko'rsatadi.

Nazarda tutilgan vazifalar amalga oshirilgach, o'quvchilar orasida kecha, viktorina kabilar o'tkazilsa, jarayonni ijobiy tomonga siljishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bajarilgan ishlar nihoyasida o'quvchilar bajargan ishlar, savollarga berilgan javoblar, ularning taassurotlari inobatga olinib eng yaxshi o'quvchilar rag'batlantirilsa, nur ustiga – nur bo'ladi.

Tabiatda mavjud bo'lган yoki inson qo'li bilan yaratilgan barcha narsalarning go'zalligini his etish va ifodalash bolalar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida ular tevarak atrofda yuz berayotgan hodisalarga befarq bo'lmaydilar. Tabiat in'omi, go'zalligini his etib, o'zlari ham shu kabi go'zallik namunalarini yaratish uchun olgan bilimlarini sinab ko'rishga urinadi.

Men ham o'zimning bitiruv malakaviy ishim uchun bajargan ishimdan zavqlanaman va kelgusida yosh avlodni tarbiyalashda oliygohda olgan bilimlarimni o'rgatishga harakat qilaman.

ILOVALAR









Artenges.ru










MURSALIMOV D.
“Gullar” Qog’oz, akvarel, guash



IKROMJONOV A.
“Mevali natyurmort” Mato, moybo’yoq



ERGASHEV M.
“Bahor” Mato, moybo’yoq



ERGASHEV M.
“Nastarin” Mato, moybo’yoq



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Barkamol avlod O'zbekiston tarakkiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
- 2.Umumi urta ta'lif maktablarida tasviriy san'at ta'lifi konstepsiyasi. – Toshkent, 1995.
- 3.Tasviriy san'at. Umumi urta ta'lifning davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturi – Toshkent: Shark, 1999.
- 4.Azimov B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent. O'qituvchi, 1984.
- 5.Bakushinskiy A.V. Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie. Issledovaniya i stati. – Moskva: Sov. xudojnik, 1981.
- 6.Boymetov B., Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at tugaragi. Toshkent, 1995.
- 7.Bulatov S. Uzbek xalk amaliy bezak san'ati. Toshkent: Mexnat, 1994.
- 8.Kamenskiy A. Velikaya didaktika. Izbr.ped.soch. Moskva: uchpedgiz, 1995.
- 9.Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. Toshkent. Ilm – Ziyo. 2005.
- 10.Hasanov R. Mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya.Toshkent.1980
- 11.Nabiev N. Rangshunoslik. Toshkent . 1995
- 12.O'zbekiston tasviriy san'at muallimlari uyushmasi. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan. Toshkent. 1993
13. Hasanov R. Beysenbaev S. O'quvchilarni tasviriy san'attan bilim va malakalarini o'zlashtirilishining nazorati. Toshkent-“ TDPU ” 2008

